

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT O`QITISH
METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI
UMIDA OTAYOROVA**

**Bobur faoliyati va adabiy merosini o`rganish
tarixi.**

Mavzusidagi Bitiruv- Malakaviy Ishi

Ilmiy rahbar f.f.n. B. Muxiddinova.

Samarqand-2013

Mundarija:

I.	Kirish.....	2
II.	Asosiy qism.....	8
	1-BOB. Bobur faoliyati va adabiy merosini o‘rganish tarixi	
	1.1. Bobur hayoti va faoliyatining darsliklarda o‘rganilish tarixi.....	8
	1.2. “Boburnoma” asarining o‘rganilishi.....	16
	2-BOB. Boburning adabiy merosi	
	2.1. Bobur lirikasining o‘rganilishi.	23
	2.2. Boburning “Volidiya” she’riy tarjimasining ma’rifiy ahamiyati.....	35
	3-BOB. “Mubayyin” – ma’rifiy badiiy asar	
	3.1. “Mubayyin” tarkibidagi risolalarning badiiy qimmatini o‘rganish.....	40
	3.2. “Mubayyin” asarining ma’rifiy ahamiyati.....	49
III.	Xulosa.....	53
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	58

KIRISH

*Umrning butun ma'nosi
mavhumlikni to'xtovsiz zabt
etish, tobora va hamisha
ko'proq bilishga intilishdir¹.*

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston davlatining mustaqillik davridagi taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha qirralarida bo'lgani singari madaniy-ma'rifiy sohalarda ham tarixiy o'zarishlarni yuzaga keltirmoqda. Istiqlol mafkurasi tufayli "Tilimizni, dinimizni, urf-odatimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni butkul yuqotib qo'yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklash..."² darajasiga erishdik. Qadimiy merosimiz ildizlarini ko'rsatish, o'tmishdagi boy an'analarni, milliy qadriyat va ma'naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbqiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylandi.

Agar biz istiqloлга qadar Bobur ijodi adabiyotshunoslikda kam darajada o'rganilgan edi, desak haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Uning badiiy, ilmiy va tarixiy merosi xususida ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, asarlari qayta-qayta nashr etilgan. Lekin mustabit tuzum davrida diniy-tasavvufiy adabiyotni zararli deb tushunish, ba'zan uning vakillari ijodini qoralash natijasida Bobur yaratgan diniy-ma'rifiy ruhdagi asarlarni o'rganish e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng bu yo'lda juda katta ishlar amalga oshirildi. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan, adabiyot darslarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodining o'rganilishida ko'proq qaysi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligi, uning she'riyatining badiiyati, ma'rifiy ahamiyati nimada ekanligi to'la yoritilmadi. Shoir she'riyatidagi mana shu jihatlarni ochib berish mavzuning dolzarbligi hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Buyuk sarkarda, davlat va madaniyat arbobi, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon Zahriddin Muhammad

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 195-бет.

² Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. – Т.: Узбекистон.1993-йил, 71-бет.

Bobur hayoti va faoliyati haqida ko‘plab izlanish va tadqiqotlar olib borilgan. Ammo B.Valixo‘jayev haqli ta’kidlaganidek: "...bu qutlug‘ ishni Boburning o‘zi “Boburnoma”da boshlab bergan edi. Shundan so‘ng Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma’lumot berish kuzatiladi”³. Darhaqiqat, Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi eng noyob ishonchli manba uning “Boburnoma”sidir. Shuningdek, bu ulug‘ shoir va sarkardaning qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari ham “Vaqoe” maqomiga yaqin turuvchi asarlar sirasiga mansub. Buning boisi shuki, Gulbadanbegim va Muhammad Haydar Bobur Mirzo bilan yaqindan muloqotda bo‘lishgani sababli o‘z asarlarida buyuk hukmdorning faoliyati, shaxsiyatiga aloqador qimmatli ma’lumotlarni keltirishgan. Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob” (1566) asarida Bobur Mirzo bilan aloqador ishonchli qaydlar o‘z ifodasini topgan. Xuddi shunday fikrni Hindistonni idora qilgan boburiy hukmdorlar Akbarshoh, Jahongirshoh va Shoh Jahon zamonida vujudga kelgan tarixiy asarlar borasida ham aytish mumkin.

Hindiston inglizlar tomonidan fath etilgandan so‘ng, aniqrog‘i, XVIII asrdan boshlab Boburning faoliyati, hayoti, ijodi kabi masalalar Ovrupa sharqshunoslarining diqqatini o‘ziga jalb etdi. Vitsen, Jon Leyden, U.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverijd xonim, Len Pul, E.Holden, V.H.Morland⁴ va boshqa tadqiqotchilar Boburning hayoti va faoliyatini o‘rganish, asarlarini nashr va tarjima qilish ishlari bilan shug‘ullandilar. Bu ilmlar orasida ingliz tarixchisi Uilyam Erskinning olib borgan izlanishlari mutaxassislar tomonidan juda ko‘p e’tirof etiladi. U 1809-yilda Jon Leyden boshlagan “Boburnoma”ning tarjimasini nihoyasiga yetkazgan. Shuningdek, U.Erskinning “Temuriylar avlodidan bo‘lmish Bobur va Humoyun davridagi Hindiston tarixi” nomli 600 sahifaga yaqin hajmdagi yirik tadqiqoti 1854-yilda, muallif vafotidan keyin nashr etilgan.

³ Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Т.:А. Қодирий номидаги «Халқ мероси» нашриёти. 2002-йил, 247-бет.

⁴ Vohidov R.J., Eshonqulov H.P.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.2006-yil, 439-bet.

Rus sharqshunoslaridan N.I.Ilminskiy, N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, N.I.Veselovskiy, V.V.Vyatkin, A.Samoylovich, V.Bartold; afg'on olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, Gulchin Maoniy; hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.Sharmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga; turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o'rganish, asarlarini nashr etish borasida o'zbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Adibning memuar asari "Boburnoma"dan parchalar 1928-yilda Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasida e'lon qilindi. Shundan so'ng bu asar 1948-1949-yilda 2 jildda, 1960-, 1989-yillarda esa asarning to'ldirilgan nusxasi nashr etildi. Umuman, boburshunoslik ravnaqida Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiyev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Said Aliyev, Botirxon Valixo'jayev kabilarning ilmiy tadqiqotlari muhim hissa bo'lib qo'shildi. Ammo shunga qaramasdan, metodika sohasida yetarli ishlar amalga oshirilmagan. Biz jurnallarning sahifalarida ba'zan Bobur hayotini yoki ijodini o'qitish bo'yicha tafsialarga duch kelsak-da, uni ilmiy ish darajasida ishlanganini uchratmadik.

Tadqiqotning maqsadi: Asarni o'rganishda belgilab olingan maqsadlar quyidagilar:

- Bobur hayoti va faoliyatini darsliklarda berilishi, bugungi davr o'quvchisini tarbiyalashdagi roli;
- "Boburnoma" asari adabiyot darslarida qay darajada o'rganilishi va bunda nimalarga ahamiyat berish kerakligi;
- Bobur lirikasining ma'rifiy ahamiyatini aniqlash, barkamol avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerakligi;
- "Mubayyin" va "Volidiya" asarlarining ma'rifiy-badiiy qimmatini aniqlash.

Ishning yangiligi: Yuqorida aytib o'tganimizdek, Bobur hayoti va ijodi o'zbek adabiyoti va metodika sohalarida o'rganilgan bo'lsa-da, lirikasining ma'rifiy ahamiyati va yosh-avlodni tarbiyalashdagi roli o'rganilmagan edi. Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatga e'tibor qaratdik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ish amalga oshirilish jarayonida maktab va akademik litsey darsliklarida o'quvchilarning o'quv, bilim faoliyatini izchil shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, Bobur hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tafsiyalar beriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotni yoritib berishda prezidentimiz I.A.Karimovning ilmiy asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Bobur asarlari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning adabiyot darsliklari va bu mavzuga doir monografiyalar, dissertatsiyalar, hamda ilmiy maqolalarga tayaniladi.

Tadqiqot metodlari. Obyektiv kuzatgan holda, biografik, struktural va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanildi.

Ilmiy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi SamDU o'zbek filologiya fakulteti, amaliy tilshunoslik, o'zbek tili adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

Tadqiqotning tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. BOBUR FAOLIYATI VA ADABIY MEROSINI

O‘RGANISH TARIXI

1.1. BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATINING

DARSLIKLARDA O‘RGANILISHI

“...Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”⁵ligini har bir murabbiy chin yurakdan his qilmog‘i lozim. Buni o‘quvchi-yoshlarga tez va oson yetib borishini ta’minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir. O‘z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo‘la oladigan, ularga ma’rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o‘rganishimizning ham asl mohiyati shunda.

“Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish uning dunyoqarashini aniqlashga yordam beradi. Bu esa unga to‘g‘ri baho berish uchun zamin hozirlaydi”⁶. Ba’zan yozuvchi va shoirlarning hayotini o‘rganish shart emas, degan qarashlarga ham duch kelimiz. Holbuki, adib-u shoirlar hayotiga oid faktlarni to‘plash ilmning chinakam “qora ishi” sifatida baholanishi kerak. Sababi, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va san’atkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini to‘g‘ri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adib hayotiga oid ma’lumotlar o‘zi yozib qoldirgan tarjimayi hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin.

⁵ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 55-бет.

⁶ Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967-йил, 239-бет.

Aql-zakovati va salohiyati bilan butun dunyoni lol qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur aynan namuna qilib ko'rsatishga arzigulik shaxs edi. Shuning uchun umumta'lim maktablarining 5-, 9-sinf o'quvchilari va o'rta maxsus ta'limning 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan darsliklarda shoh va shoir Boburning hayot yo'li, ijodiy merosi atroflicha bayon qilingan. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olingan holda, darsliklardagi ma'lumotlar izchillik bilan soddalikdan murakkablikka, mavhumlikdan aniqlikka tomon siljib boradi. Bu xususiyatni ravshanroq ko'rsatib berish uchun darsliklarga murojaat qilamiz:

5-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumotlar

Bobur ham shoh, ham shoirdir. "Bobur" arab tilida "sher" degani. Chindan ham u bu nomga munosib shaxsiyat edi. U tariximizning murakkab bir davrida yashadi. Qudratli temuriylar saltanati yemirilib, o'rniga shayboniylar kelayotgan davr edi. Yurt jang-u jadallar ichida qolgandi. Shunday bir paytda o'z yurtiga sig'magan temuriyzoda Bobur Hindistgtonga bosh olib ketdi. U yerda buyuk saltanat o'rnatdi. O'z jasorati va adolati bilan olis hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. Boburning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq hukmronlik qildilar.

Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go'zal g'azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Korgan-kechirgan voqealari haqida "Boburnoma" asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go'zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi.

Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutlug' Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

Bo'lajak shoir 12 yoshida ekan, otasi bevaqt vafot etib, Farg'ona hokimligi uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo'ldi. Lekin saqlab qolish nasib

etmadi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo'ldan berib, tog'-u toshlarda besh-o'n yigiti bilan goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo'ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o'tdi. Kobul va G'aznani qo'lga kiritdi. So'ng 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o'rnatdi.

U 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

Bobur ikki she'riy to'plam – devon tuzgan. Bizgacha shulardan bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma'lum. Hozirda bizning qo'limizda uning to'rt yuzdan ortiq she'ri bor. Shundan ikki yuzdan ortiqrog'i ruboiydir⁷.

Bu matnda tarixiy sanalar ko'p uchramaydi, shoir yozgan asarlarga ishora berilsa-da, ularning aniq nomi keltirilmaydi. Chunki o'quvchilarda ma'lum bir tushuncha bo'lmay ularga murakkab matn berilsa, bu ta'limning samarasi uchun emas, balki zarari uchun xizmat qiladi. Mana shu tomonni e'tiborga olgan holda 5-sinf adabiyot darsligida Bobur hayoti va ijodi haqida qisman to'xtalib o'tilgan, xolos. Biz bu darslikdagi ma'lumotni “Z.M.Bobur hayotiga kirish” deb baholadik.

9-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumotlar

Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir. Ayni paytda u adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi.

Hayot yo'li. Bobur 1483-yil Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'iladi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo Amir Temurga to'rtinchi avlod – evara edi. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Yunusxon esa o'n ikki avlod bilan Chingizxonga ulanardi. Ko'rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur kishilaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o'spirinlikdan to umrining oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargashtalik, zafar va mag'lubiyat, ijod-u bunyodkorlik ichida kechdi.

⁷ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.

1494-yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o‘z akasi – Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo hamda qaynog‘asi Toshkent hokimi Mahmudxon til biriktirgan holda qo‘shin tortib, Farg‘onaga yurish qiladilar. Nihoyatda qaltis vaziyat vujudga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat yuz beradi: Andijonning g‘arb tomonidagi jar yoqasida bino bo‘lgan Axxi qo‘rg‘onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab, halok bo‘ladi. Umarshayxdan uch o‘g‘il va besh qiz qolgan edi. O‘g‘illarining kattasi - 12 yoshga qadam qo‘ygan Bobur taomil bo‘yicha taxtga o‘tiradi. O‘ratepa, Xo‘jand va Marg‘ilonni qo‘lga kiritib, Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo‘shni shaharni kesib o‘tuvchi Qorasuv ko‘prigida toshqinga uchrab, tuya va otlari botqoq suvga cho‘klib, ko‘pi nobud bo‘ladi. Ustiga usatk o‘lat tarqaladi. Qo‘shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sulh tuzib, ortga qaytadi va yo‘lda vafot etadi. Sulton Mahmud ham Axxini bir muddat qamal qilib ololmay, ketishga majbur bo‘ladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi bo‘lgan Koshg‘ar va Xo‘tan hokimi Abobakr Do‘g‘latning O‘zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo‘yiladi. “Boburnoma”ning aynan shu voqealarga ishora qilib “Tengri taoloning inoyati...” so‘zlari bilan boshlanishi bejiz emas edi. Bobur 1497-yili 15 yoshida sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqand shahrini egallaydi. Lekin moddiy tanqislik, qaltis siyosiy vaziyat tufayli bu shahri azimni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Andijonda xiyonat yuz bergandi. Bobur ishongan beklar taxtga ukasi Jahongir mirzoni o‘tqazmoqchi bo‘ladilar. Ikki yil sargardonlikdan so‘ng katta mashaqqatlar bilan Andijon qaytarib olinadi. 1500-yilda Bobur Samarqandni jangsiz osonlik bilan qo‘lga kiritadi. Lekin Shayboniyxon yaqinlashib kelayotganligi uchun kuch to‘plash maqsadida Shahrisabzga jo‘naydi. Shunda Shayboniyxon Sulton Ali mirzoning onasi Zuhrabegimni unga uylanish va’dasi bilan aldab, shaharni egallaydi.

1501-yilda Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qo‘shini bo‘lgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq bo‘ladi. Ko‘p o‘tmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va u uzoq davom etdi. Bir tomondan shahar ichidagi ochlik, ikkinchi tomondan qarindoshlari bo‘lmish boshqa temuriylardan madad kelmagani yosh hukmdorni og‘ir bo‘lsa-da, bir qarorga

kelishga undadi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat Samarqandni, jondan aziz Vatanini ham butunlay tark etishga majbur bo'ldi. Ikki yilga yaqin sarson-sargardonlikdan so'ng 1503-yilda Kobulga yo'l oladi. Kobul va G'aznani jangsiz egallaydi va o'zini shoh deb e'lon qiladi. 1507-yildan Hindistonni zabt etish harakatiga tushgan Bobur 1526-yili o'z maqsadiga yetadi. Shu yilning 21-aprelida Panipat jangida Boburning 12 minglik qo'shini hind sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Ajdodlaridan meros jang sirlari, yillar davomida to'plagan tajribasi hamda taqdirning bergan achchiq saboqlari qo'l keldi. Bobur hind yerida Yevropada keyinchalik "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" deb atalgan ulkan saltanatga asos soldi. Bobur va boburiylarning hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bobur Hindistondagi din-mazhab janjallarini oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik qaror toptirishga urindi. Adolatli qonunlar chiqardi, g'ayridinlik solig'i (juz'ya)ni bekor qildi, o'lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni ta'qiqladi. Mamlakatda obodonchilik ishlarini yo'lga qo'ydi, Shuningdek, hind yerida hali hech bo'lmagan bog'lar bino qildi. Movarounnahrning shirin-sharbat mevalarini ekdirdi. Lekin jang-u jadallar, saltanat tashvishlari, ayniqsa, Vatan sog'inchi nozik qalb egasi bo'lgan shoirning sog'ligiga salbiy ta'sir qildi.

Begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. 1526-yilning 21-dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Biroq bu ahvol yigirma besh-yigirma olti kun davom etadi, xolos. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi⁸.

Akademik litsey(ikkinchi bosqich talabalari uchun darslik)dagi ma'lumot.

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. U faqat yirik adib, buyuk tarixchi, ulkan olimgina emas, balki mohir sarkarda va buyuk davlat arbobi ham edi. Uning ijodi mana shu sohalarning barchasi bilan chambarchas bog'liq holda yuzga keldi.

⁸ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010-yil, 80-81-betlar

Uning mustaqil siyosiy faoliyati juda erta bir tarzda - otasi Umarshayx Mirzoning kutilmaganda vafot etishi munosabati bilan boshlangan. Shunda u bor-yo'g'i 12 yoshda edi.

Boburdan bizga ulkan meros qoldi. Bu meros shoirning devonlari, "Boburnoma"si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta'limiy ruhdagi asarlardan iborat. U Xoja Ubaydulloning "Risolayi volidiya"sini o'zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid "Mubayyin" asarini yaratdi, "Xatti Boburiy"ni ixtiro qildi.

"Boburnoma" – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davrining ko'plab kishilarining turli vaziyatdagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'kumotlar jamlangan.

"Boburnoma" – o'zbek nasrining go'zal namunasi. Bu paytgacha Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining muqaddimasida, Rabg'uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog'onaga olib chiqdi. Biroq "Boburnoma" o'zbek nasrining o'ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko'rsatdi.

Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirotidan boshlab Kobul va Agrabacha bo'lgan qamrovga ega. Ya'ni unda O'rta Osiyodan Hindistongasha bo'lgan o'lkalardagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

"Boburnoma"dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir⁹.

Biz 9-sinf va akademik litseylardagi (II qism darsligi) shoir hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni ta'limning "Asosiy qism"i deb atamoqni ma'qul ko'rdik. Bobur hayotidan qisman bo'lsa-da xabardor bo'lgan o'quvchilar endi uning dunyoni lol qoldirgan durdona asarlari bilan tanishadilar. Ko'rganimizdek, darsliklar izchillik bilan bir-birini to'ldirib boradi. 5-sinf adabiyot darsligida Bobur hayoti va asarlari haqida o'quvchilar keng va umumiy ma'lumot oladilar. 9-sinf adabiyot darsligi tarix fani bilan bog'liqlikda boburiylar saltanati asoschisining ziddiyatli hayoti tasviriga

⁹ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 157-158-betlar.

qaratilgan. Ya'ni unda 12 yoshli Boburning taxtga o'tirishi voqealaridan tortib, Hindistonda buyuk davlat tuzishigacha bo'lgan voqealar qalamga olingan. Akademik litsey darsligida "Boburnoma" asari va "Mubayyin", "Xatti Boburiy" hamda "Risolayi volidiya" asarining tarjimai haqida ma'lumot berilgan.

Ayrim adiblarning tarjimayi holini o'rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, buyuk davlat va jamoat arboblarning fikrlaridan foydalanish ta'limda yaxshi samara beradi. Shu sababli Z.M.Bobur hayoti haqida so'z yuritganda bunday mulohazalardan foydalanmoq lozim. Ammo taassufki, biz o'rganayotgan siymo haqida maktab darsliklarida ham, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklarida ham birorta shaxsning mulohazasi keltirilmaydi, balki umumiy ma'lumot beriladi, xolos. Agar Bobur ijodi va shaxsiyati to'g'risidagi ba'zi qarashlar o'quvchilar hukmiga havola etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bu orqali o'quvchi ijodkor shaxsiyati haqida kengroq tushuncha hosil qiladi.

"U turli go'zal fazilatlar, maqtovlarga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvat peshaligi ustun kelardi"(Hasanxo'ja Nisoriy).

"Bobur dilbar shaxs. Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi"(Javoharlal Neru).

"U turli go'zal fazilatlar, maqtovlargaloyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi"(Mirzo Haydar).

"Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi..."(Monstyuart Elfinston).

"Bobur davlati, garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora

qildi. BBU ulkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi”(Rumer Goden).

1.2. “BOBURNOMA” ASARINING O‘RGANILISHI

“Boburnoma” – ilmiy, adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘qqilari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida ma’lumotlar jamlangan. Asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”¹⁰ kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoe”, “Tarix” degan iboralarni ishlatgan:

Bu olam aro ajam alamlar ko‘rdum,
Olam eliding turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu **vaqoye**’ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u na g‘amlar ko‘rdum.

“Boburnoma”da XV asrning oxiridan XVI asrning 30-yillariga qadar ro‘y bergan tarixiy voqealar aks ettiriladi. Asar 1494-yil voqeasi tasviri bilan, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzoning Farg‘onaga hujumi, Umarshayx mirzoning halok bo‘lishi va 12 yoshga qadam qo‘ygan Boburning taxtga chiqishi bayoni bilan boshlanadi. Asarda voqealar doirasi kengayib, chuqurlashib, murakkablashib boradi. Bobur Movarounnahrdagi, keyinroq Xuroson, Afg‘oniston va Hindistondagi voqealarni bayon qiladi. Biroq muallif tarixiy voqealarni sanab o‘tish yoki ular haqida ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki u tarixiy voqealarning manzarasini, tarixiy shaxslarning qiyofasi va xarakterini, tabiat lavhalarini chizib beradi, maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoya qiladi, xalq maqollari va she’riy parchalar bilan o‘z asarini bezaydi, turli usul va til vositalaridan foydalanadi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda “Boburnoma” asaridan ba’zi parchalar

¹⁰ Teshaboyev B. Boburning “Boburnoma” asaridan foydalanish // Xalq ta’limi. 1993. №10-12, 26-bet

kiritilgan bo'lib, bu asar haqida tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Eski darsliklarda "Boburnoma" asaridagi Umarshayx mirzo va Xumoyun mirzo tasvirlari keltirilgan edi. Amaldagi darsliklarda esa ularning tasviri o'rniga Husayn Boyqaro ta'rifi keltiriladi. Hozirgi umumta'lim maktablarining 9-sinf va akademik litseylar uchun mo'ljallangan II kurs adabiyot darsliklarida joy nomlaridan Farg'ona, Andijon va Samarqand, Hindiston tasviri keltiriladi:

"Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samrqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar... Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqe bo'lubtur. G'arbi tarafikim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyg'a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar.

Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suvining janub tarafida, ikki(si) shimol jonibida. Janubiy tarafidag'i qasabalar(dan) biri Andijondurkim, vasatta voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijon noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo'lubtur. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdogirdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur. Bu mahalla bila qal'aga fosila ushbu xandaq yoqasidog'i shohrohtur. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash-u namo topibtur, bu til biladur. Elning orasida husn xeyli bordur. Yusuf Xojakim musiqida

mashhurdur. Andijoniydur. Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko‘p bo‘lur”¹¹.

O‘quvchilar “Boburnoma” orqali bugungi kunimiz bilan o‘rta asrlardagi shaharlarni, aholining turmush tarzini solishtirib ko‘radilar. Yuqoridagi parchada Bobur o‘rta asrlardagi Farg‘ona viloyatini ta’riflamoqda.

Asarda har bir voqea-hodisa shunday ustalik bilan tasvirlanadiki, bevosita o‘quvchining ko‘z oldida gavdalanadi. Biz buni Samarqand tasvirida yaqqolroq ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

“Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba ila munga dast topmog‘on uchun “baldayi mahfuza” derlar. Samarqand amirul mo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lg‘ondur. Sahobadin Qusam Ibn Abbos anda borg‘ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo Mazori Shohg‘a mashhurdur. Samrqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur. Qo‘rg‘onini fasilning ustidin, buyurdimkim, qadam urdilar, o‘n ming olti yuz qadam chiqti.

Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri’... eldur. Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim, Movarounnahrdin paydo bo‘lubtur, hech viloyattin ma’lum emaskim, muncha paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Shayx Abumansurkim, aimmai kalomindur, Smarqandning Motrid otliq mahallasidindur. Aimmai kalomikki firqadur: birni motridiya derlar, birni ash‘ariya derlar. Motridiya shayx Abumansurga mansubdur. Yana sohibi “Sahihi Buxoriy” Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahrdindur. Yana sohibi “Hidoya”kim, imom Abu Hanifa mazhabida “Hidoya”dan mo‘tabarroq kitobi fiqh kam bo‘lg‘oy. Farg‘onanig Marg‘inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili Movarounnahrdur.

Ma’muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Tohkand va Shohruxiyakim Shosh va Banokat

¹¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligraf service, 2010-yil, 86-bet

bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Ko‘hak suyi shimolidin oqar. Samarqabddin ikki kuruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur. Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur. Darg‘am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar‘iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana bir necha tumonoti bu suv bila ma‘murdir.

Buxoro va Qorako‘lgachakim, o‘ttuz-qirq yig‘och yo‘lg‘a yovuqlashur Ko‘hak suyi bila ma‘mur va mazru‘dur. Mundog‘ ulug‘ daryo also ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to‘rt oy Buxorog‘a suv yetmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami mevasi xo‘b bo‘lur. Vali ikki meva Samarqanddin mashhurdur: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori ararchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yashi havosi bor, agarchi Kobulcha yo‘qtur.”¹²

Samarqandga bunchalik diqqat qaratilishining sababi tarixdan ma‘lum. Z.M.Bobur bir umr sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan bu yurtga intilib yashadi, ammo taqdiriga hijron bitilgan shoh bir umr Vatandan ayro yashadi.

Darsliklarga Kobul, G‘azna va Hindiston ta‘rifi ham keltirilgan bo‘lib, u yerlarning hayvonot va nabotot olami, me‘morchilik, iqlimi haqida ma‘lumotlar beriladi. Bu ta‘riflarda Movarounnahr va Xurosondagi shaharlar bilan taqqoslanadi. Shuningdek, Hindiston ta‘rifida Bobur u yerda qovun va uzum yetishtirganini ham aytib o‘tadi. Bu esa uning qanchalik zukko va tadbirkor shaxs bo‘lganidan dalolat beradi:

“Balxiy polizkorni qovun ekkali qo‘yulub edi. Bir necha qovun saqlag‘on ekandur, kelturdi. Xili yaxshig‘ina qovunlar edi. Bir-ikki buta tok “Hasht behisht” bog‘ida yetkurub edim, aning ham yaxshig‘ina uzumlari bo‘lub edi, Shayx Go‘ran

¹² O Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligraf service, 2010-yil, 87-bet.

ham bir sabad uzum yiborib edi, yomon emas edi. Hindistonda qovun, uzumning muncha bo‘luridin filjumla xursadlig‘ bo‘ldi.”¹³

9-sinf va akademik litsey darsliklarida keltirilgan “Boburnoma”dagi parchalar bir-birini to‘ldirishga va asar haqida kengroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Biz yuqorida qayd etganimizdek, umumiy o‘rta ta’lim maktabi darsligida Farg‘ona, Andijon, Samarqand tasviri keltiriladi. Demak, o‘quvchilarda bu shaharlar haqida tushuncha mavjud. O‘rta maxsus ta’limda esa mana shu shaharlar haqida dastlab ma’lumot berib o‘tiladi (qisqacha) va yangi tasvirlarga e’tibor qaratiladi. Masalan, Samarqand tasviridan so‘ng Buxoro, Kesh haqida to‘xtalib, Husayn Boyqaro ta’rifi keltiriladi. “Boburnoma”da ikki yuzdan ortiq tarixiy shaxsning nomi tilga olinadi. Ularning faoliyati, sarguzashti, o‘zaro munosabatlari bayon etiladi.

Asarda nomlari qayd qilingan shaxslar ijtimoiy-siyosiy mavqei, dunyoqarashi, xulq-atvori, xatti-harakati jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bobur ularga xos xususiyatlarni aniq ravishda, ayrim o‘rinlarda badiiy umumlashtirgan holda tasvirlaydi.

(Husayn Boyqaro)

Valodat va nasabi. Valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hirida Shohruhmirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur... Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo karimuttarafayn (ikki taraflama ulug‘) edi...

Shakl-u shamoyili: qiyiq ko‘zluk, sher andom (qomat) bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi inchka (ingichka) edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni (ipak) kiyar edi. Qora qo‘zi bo‘rk (telpak) kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech (uch o‘ram) dastorni (salla) yap-yassi yomon chirmon (o‘ralgan) chirmab, qarqaro o‘tag‘asi (podsholi jig‘asi) sanchib, nomozg‘a borur erdi.

¹³ To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 187-bet.

Axloq va atvoqi: Mafosil (bod kasalligi) zahmati jihatidin namoz qila olms edi, ro'za ham tutmas edi. Harrof (chechan) va xushxulq kishi edi. Ba'zi muomalotta (muomala) sharni (shariat) bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'ldurgani uchun qonliqlarig'a topshurub, dorulqazog'a (qozixona) yibordi...

Shujo va mardona kishi edi... Temurbekning naslidin ma'lum emaskim, Sulton Husayn mirzovha qilich chopmish bo'lg'ay. Ta'bi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi "Husayniy" edi...¹⁴

Ko'rinib turibdiki, Bobur Husayn Boyqaroning shunchaki ta'rif-taavsifini berib ketmaydi, balki uning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori va nasl-nasabi haqida ham ishonchli ma'lumotlarni beradi. Akademik litsey darsligining II qismida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodidan bir mavzu oldin (Husayn Booyqaro→Muhammad Solih→Bobur) Husayniy ijodidan lavhalar keltiriladi. Unda "Risola" asari va g'azallaridan namunalar keltiriladi, xolos. Yuqoridagi parcha orqali esa o'quvchilar Husayn Boyqaro haqida keng va atroflicha ma'lumot oladilar.

"Boburnoma"da Alisher Navoy, Abdurahmon Jomiy, Behzod kabi ko'plab yirik ijodkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatiga xolis baho beriladi. Masalan, Bobur Alisher Navoiy haqida so'zlaganda uni "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bilan to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas", deb ta'riflaydi va fan-madaniyat homiysi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

"Umarosi: ...Yana Alisherbek edi, begi emas edi, balki musohibi edi. Kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur. Bilmon ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiriyydin ixroj qildi. Samarqandg'a bordi, necha yilkim, Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdir...

Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas...

¹⁴ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 178-179-betlar.

Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha tarqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay..."¹⁵

Darslikda aynan Navoiy haqidagi parchaning berilishida ma'lum sabab bor. Chunki o'quchilar Alisher Navoiy haqida ancha tushunchaga ega bo'lib, "Boburnoma"dagi matnni uqib olishga uncha qiynalmaydilar.

Bobur o'z asarida tarixiy voqealar haqida ma'lumot berish bilan birga, shu voqealarning ishtirokchisi sifatida o'quvchi ko'z oldida gavdalanadi. U shoh sifatida o'lkalarda qattiqqo'llik siyosatini olib boradi, jangdan bosh tortgan bir necha yigitning burnini teshadi, asir tushganlardan bir qismini o'ldiradi. Shu bilan birga, u kishilarga marhamat va shafqat ham ko'rsatdi. Bobur beva-bechoralarni talagan Xisravshohni qoralaydi; birovning bir ko'za yog'ini o'g'irlagan bir yigitni tayoq bilan urdiradi; ayrim vaqtlarda yigitlari bilan goh yayov, goh otliq yurib, mashaqqat chekadi. "Boburnoma"ni o'rganish mobaynida o'quvchilar murabbiy ko'magiga muhtoj bo'ladilar. Zero, buyuk donishmand Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, "Insoniy vujuddan maqsad – eng oliy baxt-saodatga erishuvdir. Baxt-saodatlarga erishuv va tug'ma qolbilyatlarning rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir muallim yoki rahbarga mutojlik tug'iladi"¹⁶. O'qituvchi turli xil innavatsion texnologiyalardan foydalanib, yangi ma'lumotlar asosida dars o'tsa, ta'limda ko'zlangan maqsadga erishgan bo'ladi. Asarni o'qishda miniaturalardan foydalanib, ovozli tasma orqali "Boburnoma"dan parcha havola etilsa yoki bunday imkoniyatga ega bo'lmasa, asarning o'zidan ba'zi joylarni o'qib bersa, o'quvchilarda qiziqish ortadi. "Boburnoma" haqida ma'lumot berganda o'qituvchi shunga erishishi kerakki, o'quvchi Boburni ham olim, ham

¹⁵ To'xliyev B., Mirsamigova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 178-180-betlar.

¹⁶ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуи. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 208-бет.

donishmand shoir, ham xo'jalik ishlariga va obodonchilikka katta ahamiyat bergan, ham ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga muruvvatli kishi sifatida tasavvur etsin.

9-sinfda Bobur hayoti va ijodiga 7 soat ajratilgan bo'lib, "Boburnoma" asarini 4 soat davomida o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Bu vaqt mobaynida o'quvchilar yetarlicha ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

1 soat Bobur hayoti va ijodi haqidagi ma'lumot.

1 soat "Mening ko'nglimki gulning g'unchasidek tah-badah qondur" va "Mushkuldur" radifli g'azallarini ifodali o'qish va yod olish.

4 soat "Boburnoma" asarini o'qib o'rganish.

1 soat memuar asar haqida nazariy ma'lumot.

II BOB. BOBURNING ADABIY MEROSI

2.1. BOBUR LIRIKASINING O'RGANILISHI

Bobur ijodi mumtoz soʻz sanʼatimizda Navoiydan keyingi alohida bosqichni tashkil etadi. Zero Amir Haydar taʼkidlaganidek, “Turkiy sheʼrni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”¹⁷. U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy sheʼrlaridagi xalqchilik Bobur asarlarida yangicha shaklda qayta tugʻildi. U oʻz asarlarining mavzusini asosan hayotdan oldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur sohibdevon shoir boʻlsa-da, uning devoni bizgacha mukammal holda yetib kelmagan. Hozirgacha shoirning 119 gʻazal, 1 masnaviy sheʼri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qitʼalari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham oʻrin olgan.

Yaqinda adabiyotshunos olim Shafiqa Yorqin Boburning Turkiyadagi Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy qoʻlyozmalar boʻlimida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devonidagi uning hozirgacha nashr etilgan toʻplamariga kirmagan oʻzbek tilidagi 5 gʻazali, 9 qitʼasi, 5 ruboiysi, 9 masnaviy sheʼri, 10 toʻrligi, 2 tuyugʻi, 40 dan ortiq fardlari, qator masnuʼ sheʼrlari, 1 masnuʼ tarjeʼbandi, 2 nomasi, fors-tojik tilidagi 1gʻazali, 10 ruboiysi, 4 qitʼasi, 12 fardi va 2 nomasini eʼlon qildi¹⁸.

Bobur lirikasi mavzu doirasi, shakliy takomili va badiiyligi jihatidan gʻoyat goʻzal va mukammalligi bilan alohida eʼtiborga loyiq. Shoirning sheʼrlarida hayotbaxsh tuygʻular – hayotdan zavqlanish, el-yurt, diyor sevgisi, ona Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonning iztirobli tuygʻulari, pand-nasihat mavzusidagi ilm-maʼrifat, odob-axloqqa chaqiruvchi mavzular yuksak mahorat bilan kuylanadi. Bobur poeziyasining muhim tomonlaridan biri shoir sheʼrlari tarixiy voqea va hodisalar bilan chambarchas bogʻlanishida va oʻsha davrning voqeligi sodda va

¹⁷ Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh (“Tarixi Rashidiy”dan). Fors tilidan Gʻulom Karim tarjimai/”Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”, 2002-yil, 15-fevral

¹⁸ Захириддин Мухаммад Бобур. Сочинение савдоси тушди. – Т.: Шарк. 2007-йил, 4-бет.

ravon tilda taraqqiyparvar fikrlar bilan ifodalanishi, jo'shqinligi, til boyligi va hayotiyligidadir:

*Davron meni o'tkardi sar-u samondin,
Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.
Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,
Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.¹⁹*

Umumta'lim maktablarining adabiyot darsliklariga Zahiriddin Muhammad Boburning eng sara she'rlari kiritilgan va ular mavzu va g'oya jihatidan darsliklarga taqsimlangan. Masalan, 5-sinfda o'quvchilar shoirning asosan vatan mavzusidagi ruboiylari bilan tanishadilar:

*Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.*

Vatan haqidagi qarashlari, asarlaridagi vatanparvarlik g'oyalari o'zining ta'sirchanligi, mazmuning chuqurligi bilan o'quvchilarda Vatanga muhabbat, uning bemisl boyliklariga, insonlarga mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalashda katta xizmat qiladi. Oshufta shoir ona yurtidan yiroqda bo'lsa ham, o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga, ona Vataniga bo'lgan muhabbat, unga yetishish orzusi doim uning qalbidan iztirob tuyg'ularini o'chirmaydi:

*Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Bir umr Vatanga qaytishni orzu qilgan shoir niyatiga yetolmaydi, saltanat bir umr uni chet elga bog'lab qo'yadi:

*Ko'pdin berikim yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.*

¹⁹Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарқ. 2007-йил, 188-бет

*Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.*

Bobur chet elda o‘zini, bir tomondan, katta davlatning hukmdori, ikkinchi tomondan, yor-diyoridan judo bo‘lgan bir g‘arib, musofir kishi deb his qiladi. Yurtida ekanligida uning saltanati, mustahkam davlati yo‘q edi. Mustahkam va katta davlatga ega bo‘lganida esa yurtidan mosuvo bo‘ldi. Davlat, saltanat shoh qalbidagi Vataniga, ona tuprog‘iga, xalqiga bo‘lgan mehr-muruvvatni yenga olmadi. Saltanat va davlatni o‘z yurtida barpo eta olmaganidan nadomat chekadi.

Bobur ilm-ma‘rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma‘naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganligida deb biladi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblagan ijodkor ilmi urfonning mohiyatini ehtiros bilan qalamga oladi:

*Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak.
O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo‘q,
Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.*

Demak, kimki ilmli bo‘lsa, bu ilmni shogirdlariga yetkazmog‘i kerak, ilm istovchilar o‘rganmog‘i uchun o‘rganadigan ilm bo‘lmog‘i lozim. Men ilm istovchiman, ammo men o‘rganmoqchi bo‘lgan ilm yo‘q, mendek ilm toliblariga ilm kerak, degan go‘zal bir g‘oya ushbu ruboiyda o‘z ifodasini topgan. U fan va bilimning ahamiyatini qayd qiladi. Insonlar chinakam komilikka erishmoqchi bo‘lsalar, fan va bilimni egallashlari lozimligini ta’kidlaydi.

Bobur ruboiylaridan namunalar akademik litsey talabalari uchun mo‘ljallangan darslikda ham uchraydi. 5-sinf adabiyot darsligidagi ruboiylarning ba’zilari takrorlansa-da, mavzu doirasi kengayganligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, endi faqat vatan sog‘inchi, unga yetishish orzusi va yeta olmaganlari armonlari emas, balki haqiqiy va majoziy ishq kuylangan ruboiylari bilan ham tanishamiz.

Biz bilamizki, mumtoz adabiyotda lirikaning asosiy mavzusi bu ishq-muhabbat. Shunday ekan, Bobur lirikasini ham bundan mustasno deb ayta olmaymiz. Hayot lazzati va shodlikni kuylagan shoir sevgini hayot va shodlikning manbayi, uning muhim uzvi deb biladi. Bobur shohlikdan oshiqlikni ustun qo'yadi. Uning nazdida ma'shuqa – shoh, oshiq esa – qul. Ma'shuqa – ustun, oshiq – nigun, ma'shuqa – quyosh, oshiq esa tun. Oshiq shoir yorni butun qalbi bilan sevadi, unga samimiy ehtirom ko'rsatadi va kamtarlik bilan o'zini sevgi bobida zabun va ma'shuqa oldida ojiz deb biladi:

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen

Sen shu'lasen-u ul shulag'a men kuldurmen.

Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,

*Shahmen elga vale senga quldurmen*²⁰.

Ushbu she'rdagi tashbix, tazod san'atlaridan ustalik bilan foydalanilgan.

Bobur she'riyatida tarannum etilgan sevgi tuyg'ulari haroratli, samimiyligi bilan ham ajralib turadi:

Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa,

Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa.

Og'zi-yu beliga bud-u nobudim sarf,

*Ko'z-yu labig'a jism-u jonim sadqa.*²¹

Ko'rinib turganidek, mavzu muhabbat haqida. Bu yerda "sadqa" so'zi radif bo'lib kelmoqda. Endi misralardagi fikr va mazmunni anglab olishga harakat qilaylik. "Raftor" – yurish, "ravon" – ning ma'nosi ham shunday. Uning yana bir ma'nosi ("ravon"ning) jondir, ya'ni yurish va qaddi-qomatiga jonim fido bo'lsin, deyilmoqda. Ikkinchi misrada esa "bir", "ikki" so'zlari orasida ziddlik bor. Bunga oz, ko'p ma'nolari singdirilgan. "Ikki jahon" – islomiy tushunchaga ko'ra ikki dunyo (foniy va boqiy). "Boqish" va "jahon" so'zlarida ham ma'lum bog'lanish topish mumkin (jahonga boqiladi). "Bud-u nobud" bor-yo'q degani.

²⁰ To'xliyev B., Mirsamigova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 172-bet.

²¹ O'sha kitob, 171-bet.

Shoir ma'shuqaning og'zi va beliga bor-yo'g'ini bag'ishlamoqchi, go'zalligi uchun, albatta. To'rtinchi misradagi ko'z-jism, lab-jon bog'lanishlarida teran mazmun bor. Masalan, ko'z jism (tan)da joylashgan, ko'z go'zal qomatga tushganda yashaydi, lab oshiqqa jon bag'ishlaydi va h.k. Demak misrada so'zlar shu qadar tanlab, barcha ma'no ohanglari ko'zda tutib ishlatilganki, bu yuksak san'atkorlikdan nishonadir.

Akademik litsey darsligida Zahiriddin Muhammad Boburning yigirma to'rtta ruboiysi keltirilgan bo'lib, ularning tarkibida avtobiografik mavzudagi ruboiylar ham, sof intim lirikaning mahsuli hisoblanmish ruboiylar ham mavjud. Ammo ularning ko'pchiligi ijtimoiy hayot bilan bog'liq. Shu sababli ularni tahlil qilishda Bobur hayot yo'liga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Masalan, quyidagi ruboiyni lirik qahramonning hayotidan xabardor bo'lgan o'quvchi qanday g'oya ifodalanayotganligini idrok etishi mumkin:

Ey gul, ne uchun qoshingda men xor o'ldum?

Yuz mehnat-u anduh bila yor o'ldum!

Vasling bila bisyor sevindum avval,

Hajring bila oqibat giriftor o'ldum.

Bu she'rni ishq-muhabbat mavzusidagi ruboiy deyishimiz ham mumkin. Lekin, vasli bilan avval sevinib, keyin hajri o'tida kuyishi ko'proq vataniga qarata aytilayotgandek bo'ladi va bu haqiqatga yaqinroqdir. Yoki quyidagi she'rini ham xuddi shunday ikki xil tahlil qilish mumkin:

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,

Vaslingga yetishmadim, jihat bu erdi:

Ohim tutuni bila ko'zum yoshidin

Yo'l balchiq erdi, kecha qorong'u erdi.

Hayotning butun achchiq-chuchugini tortgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan Boburning ko'pgina baytlari hikmatday jaranglaydi. U atay nasihat qilmaydi, bu uning hayotiy kuzatishlari va xulosalaridan kelib chiqadi:

*Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur,
Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur,
G'am yemaki, yetkursa boshini ko'kka,
Oxir yana yer kibi oni past qilur.*²²

Qanday purma'no satrlar. Bu besh kunlik dunyo hech kimga vafo qilmagan. Shu sababli, Bobur agar dunyo dushmaningni g'olib qilib, kibr-u havo mayidan mast qilib qo'ysa, g'am yema. O'zi boshini ko'kka yetkazib, yana o'zi yerga olib kelib qo'yadi, demoqchi.

Bobur g'azallaridan namunalar 9-sinf adabiyot darsligida 2 ta, akademik litseylarning ikkinchi bosqich talabalari uchun tuzilgan darslikda 19 ta keltirilgan. 9-sinf darsligida berilgan "Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-badah qondur" va "Mushkuldur" radifli g'azali akademik litsey darsligida takroran keltirilgan. Demak, o'n ikki yillik majburiy ta'limda o'quvchilar Boburning 119 ta g'azalidan 19 tasi bilan tanishadilar. Bulardan tashqari darslikda yana quyidagi she'rlari keltiriladi: "Kerak", "O'lum qayg'usig'a borub jahondin bo'ldim osuda", "Topmadim", "Qoldimu", "Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga", "Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam", "Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana", "Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching", "Baloyi ishqki, har dam manga jafoyedur", "Sening ishqingda...", "Xazon yafrog'i yanglig'...", "G'ofil o'lma...", "Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur", "Bahor ayyomidur...", "G'urbatda ul oy...", "Topilmas", "Yaxshilig'".

Insonga xos quvonch ham, g'am ham shoir she'riyatida birdek ma'no-mohiyat kasb etadi. Bu holat o'z-o'zidan she'rning hayotiyiligini, ta'sirchanligini kasb etadi. Albatta, bunga Boburning bir umr vatandan ayro tushgani, uning so'ngsiz sog'inch-u alamlari sabab bo'lgan. Shu jihatdan quyidagi g'azali alohida ahamiyatga ega.

*Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrayi zardim.*

²² To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 172-bet.

*Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
 Ayog'ingg'a tushib bargi xazondek muncha yolbordim.
 Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,
 Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.
 Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,
 Bahar range, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim.
 Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,
 Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.
 Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
 Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.*²³

She'rdagi vatan sog'inchi ifodalangan. Bunda shoir kuz manzarasini, ona tabiatning sulg'inmanzarasini, shu bilan hamohang, lirik qahramon kayfiyatini ochadi, tasvirlaydi. Muallifning munosabati va sharhlari she'rdagi sog'inchi va dardni, Vatandan ayrilish fojiasini kuchaytirib boradi. Kuz, xazon umrning so'ngidan nishona. Umrini "hajr" (ayriliq)ingda o'tdi, deydi. Shoir "lolaruh"dan rahm qilishini so'raydi. U esa parvosiz "sarkash" (o' husniga mast), chunki u sarvdek go'zal va bezavol, xazon ofatiga begona, hamisha yam-yashil. Kim u lolaruh, sarvchi? Nega lirik qahramon uning oyog'iga bargi xazondek tushib muncha yolvoradi? U Vatan! Faqat vatangina bezavol, abadiy yashillik maskanidir. Faqat u inson uchun tengsiz. Vatanni, ona diyorni hech bir narsaga almashtirib bo'lmaganidek, uni o'zga bir narsaga mengzash ham mumkin emas. Chunki, bu Vatan, insonning kindik qoni tukilgan maskan... Vatan – abadiy, insonlar esa kelib-ketaveradilar.

G'azalning uchinchi baytida dunyo bog'idan go'yo xazon bargidek ketayotgan shoir Vatan daraxtyining bir umr "sabz-u xurram" (yashil va ko'rkam) qolishini dil-dildan istaydi.

To'rtinchi baytda sarg'ayib uzilgan barg timsoli yana davom etadi. Kuzning sariq-qizil ranglari yuz va ko'zyosh (qon yosh)ga ko'chriladi va ulardan elning

²³ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 164-bet.

nafratlanayotganligi (“tanaffurda”) tilga olinadi va lirik qahramon ulardan o‘zini qutqara olganiga shukrona aytadi.

Qismat kitoblarini bir-bir varaqladim, yo‘q, baxt yulduzim (“axtari yulduzim topilmaydur”) topilmadi, tole‘im neligini bilmadim.

G‘azalning maqtasida o‘zining Vatan haqidagi istak va e‘tiqodidan zarracha ham qaytmagan, ochiq yuz, ochiq ko‘ngil, tanti va jumard Bobur butun borlig‘icha, axtida sobitligida namoyon bo‘ladi.

Xalqning ta‘nasi ham, ta‘rifi ham men uchun ahamiyatsiz, chunki yaxshilikni ham, yomonlikni ham keragidan ortiq ko‘rdim, deydi shoir she‘rida ma‘no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi so‘z va iboralarni, fikr yoki holatni anglatib, aytmoqchi bo‘lgan gapining ta‘sirchan chiqishiga erishadi. Xazon yafroqi, gul yuz, lolaruh, chehrayi zard (sariq), ta‘na-ta‘rif, yaxshi-yomon kabi.

Ma‘lumki, “gul” so‘zi ko‘pincha “yuz” so‘zi bilan yonma-yon ishlatiladi. O‘z navbatida, “gul” ma‘no jihatidan barg, gulshan, bog‘ so‘zlariga yaqin. Shoir she‘rda mana shunday so‘zlardan, ularning ma‘no o‘xshashliklaridan ustalik bilan foydalaniladi.

Yuqorida ayib o‘tilganidek, Bobur she‘rlarining ko‘pchiligi avtobiografik mavzuda. Jumladan, “Qoldimu”radifli g‘azali ham:

Charxning men ko‘rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!

Xasta ko‘nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?!

Meni xor etdi-yu qildi muddaiyni parvarish,

Dahri dunparvarning o‘zga muddaosi qoldimu?!

Meni o‘lturdi jafo-u davr birla ul quyosh,

Emdi tirguzmak uchun mehr-u vafosi qoldimu?!

Oshiq o‘lg‘och ko‘rdum o‘lumni o‘zumga, ey rafiq,

O‘zga ko‘nglumning bu olamda harosi qoldimu?!

*Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de bu olamning safosi qoldimu?!²⁴*

O'qituvchi bu g'azalni o'rganishni asarning yozilish tarixi haqida sharh bilan boshlasa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Bobur Shayboniyxonga qarshi Husayn Boyqaro va uning o'g'illari bilan birgalashib kurashish uchun Murg'obga boradi. So'ng Hirotga borib, qishda Kobulga yo'l oladi. Otning uzangisi tegadigan qalin qor bosgan yo'lda Bobur va uning hamrohlari qor tepib, ot-ulov va kishilarga yo'l ochib qiynaladilar. "Qoldimu" g'azalining matlasi ana shu yo'l mashaqqatlari tufayli yaratiladi.

Asarning yaratilishi tarixini yana-da chuqurroq yoritishga "Boburnoma" da berilgan quyidagi parcha imkon beradi. O'qituvchi bu parchani o'qib berhani ma'qul:

"Ul necha kun bisyor tashvishlar va mashaqqatlar tortuldi, andoqkim, muddatul-umr muncha mashaqqat kamroq tortilib edi. Bu matla'ni o'shal fursatta aytildi:

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!

Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?!

Bir haftag'a yovuq qor tepib, kunda bir shar'iy-bir yarim shar'iydin ortuq ko'chulmas edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichki bila va Qosimbek edi, ikki o'g'li Tengriberdi va Qanbar Ali bila yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu mazkur bo'lg'onlar yayoq yurub, qor tepar eduk, har kishi yeti-sekkiz o'n qari ilgari yurubqor tepar edi. Har qadam qo'yg'onida beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borg'ondin so'ng ilgarigi kishining hamli quyub turar edi, yana bir kishi ilgari o'tar edi, bu o'n-o'n-besh-yigirma kishi yayoq qornikimtepar edi, oncha bo'lur edikim, bo'sh otni tortsa bo'lur edi. Bo'sh otni tortilur edi, uzangusig'acha, qoptolig'acha ko'p-ko'p, bota-bota bu bo'sh ot ham o'n-o'n besh qadamcha yo'l yurub toliqur edi. Bu otni yoqag'a tortib, yana bir

²⁴ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 160-bet.

bo'sh otni ilgari tortilur edi. Ushbu dastur bila biz o'n-o'n-besh-yigirma kishi-o'q qor teptuk. Ushbu dastur bila biz o'n-o'n-besh-yigirma kishining otlari-o'q ilgari tortildi, o'zga tamom o'bdon-o'bdon yigitlar va bek otong'onlar otlaridan ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilg'on yo'lg'akirib, boshlarin quyi solib kelurlar edi. Mahal ul emas edikim, kishig'a taklif va zo're qililg'ay, har kimning himmat va jur'ati bo'lsa mundoq ishlarni o'zi tilab qilur.”²⁵

Yuqoridagidek ma'lumotdan so'ng g'azalni avval o'qituvchining o'zi ifodali o'qib beradi, so'ngra o'quvchularga o'qitadi. Chunki aruz vaznidagi she'rlar o'z o'qilish tartib qoidalariga ega. Ifodali o'qish she'r go'zalligini chuqur his etishga, o'quvchilarda shoirning badiiy mahorati haqida to'liq tasavvur hosil bo'lishiga imkon beradi. Zero, g'azaldagi ma'nolarni tushunish bilan birga g'azalni o'z vazni – ohangi bilan o'qish, talaffuz etish ham juda muhim. Aslini olganda, g'azalni tushunmay, undagi satrlarni to'g'ri o'qish amri mahol, shu kabi har bir g'azal o'z vazni bilan o'qilmasa, undagi ma'nolar yorqin va ta'sirchan chiqqmaydii. Voqean, g'azal – bu musiqa, shu bois, undagi so'z va iboralar ham nozik, nafis va dilrabo. Bitta so'zgina emas, bitta tovush yoki qo'shimcha noto'g'ri talaffuz etilsa, ohangiga tushmasa, butun asarning ohori tukiladi, g'alizlik va dag'allik yuz beradi. “Avvalo shuni ta'kidlash joizki, aruz vaznida yozilgan asarlar, ayniqsa, g'azallar mayin, ohista o'qilishini talab etadi, asar so'zlaridagi har bir bo'g'inga urg'u berish, baland ovozda zo'r berib o'qish mumkin emas. Bu – aruz vazni talabiga ziddir. G'azal latif va nozik ma'noli janr bo'lganligi uchun uni nafaqat kuyga solib, qo'shiq qilib kuylaganda, balki qiroat qilib o'qiganda ham ana shu mayin, nafis ohang buzilmasligi lozim”.²⁶ Bunday ko'nikmalarni, dastlab, maktab va litsey-kollejlarda o'qituvchilar berib borishi lozim.

Yuqoridagi g'azal ramal bahrida yozilgan bo'lib, paradedgmasi quyidagicha:

— V — — — V — — — V — — — V —

²⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989-йил, 174-175-бет.

²⁶ Нажмиддин Комилов. Маънолар оламига сафар. – Т.:TAMADDUN, 2012-йил, 5-бет.

O'quvchilar she'rni yod olganda qiynalmasligi uchun o'qituvchi tahlil qilib beradi.

Yuqorida "Boburnoma"dan keltirilgan parchadan ham ma'lum bo'ldiki, Bobur juda qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Otning belidan keladigan qorni kechib yo'l ochishning o'zi bo'lmaydi. Oz miqdorda qor yog'sa, sovuq bo'lganidan uydan chiqqimiz kelmay qoladi. Shunday ekan, Bobur va uning safdoshlari ahvoli barchamizga ayon. Buning ustiga Vatanidan ayrilgan, "xasta ko'ngli chekmagan dard-u balo" qolmagan. Ikkinchi baytda lirik qahramon barcha aybni pastkash dunyo(dahri dunparvar)ga yuklaydi, ya'ni meni xor qilib, da'vogar (dushman) ni parvarish qildi, endi bu pastkash dunyoning yana muddaosi qolidimi? deya, oh uradi Bobur. Biz bilamizki, ishq mumtoz adabiyotda juda keng ma'noga ega bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Oshiq va ma'shuq har doim ham yigit va qiz obrazini ifodalamaydi. Shu sababli uchinchi baytda ma'shuqa obrazi orqali Ona yurt anglashiladi. To'rtinchi bayt – begona baytda shoir do'stga murojaat qiladi: "Ey, do'tim oshiq bo'lgach, o'zimga o'limni lozim topdim. Menga dunyoda hech qanday qo'rquv qolmadi". Bobur mag'lub bo'lgan chog'larida umidsizlikka tushadi. Undagi bu kayfiyat g'azalning oxirgi baytida ifodalangan.

Darsliklardan Boburning ikki tuyug'i va bir fardi ham o'rin olgan:

*Vasldin so'z derga yo'q yoro manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.
O'qung etti ko'p yamon yoro manga,
Marhami lutfung bila yoro manga.
Qadimni mehnat firoqi yo qildi,
Ko'nglum g'am-u anduh o'tig'a yoqildi.
Holimni sabog'a aytib edim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi, yo qildi.*

*Bormi ekin hech nima olamda, hijrondin yamon,
Har nekim ondin yamonroqdur, budur ondin yamon*²⁷.

Hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan Boburning ko'pgina baytlari hikmatday jaranglaydi. U atay nasihat qilmaydi, bu uning hayotiy kuzatishlari va xulosalaridan kelib chiqadi:

*Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,
Ko'zni yumub-ochquncha bu gulzor topilmas.*

“Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir” (Abdulla Qodiriy).²⁸ Biz Bobur ijodini o'rganish barobarida ham xuddi shunday xayrli ishga qo'l urgan bo'lamiz. Bulardan ma'lum bo'ladiki, shoir lirikasining adabiyot darslarida o'qitilishining amaliy ahamiyati katta. Bobur Mirzo ulug'lagan komillik, ezgulik va go'zallik yaxshilik va hamjihatlikning, o'zaro ittifoq va osoyishtalikning buyuk timsollari sifatida butun insoniyat qalbida iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

²⁷ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 175-bet.

²⁸ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1999-йил, 117-бет.

2.2. BOBURNING “VOLIDIYA” SHE’RIY TARJIMASINING

MA’RIFIY AHAMIYATI

Ma’lumki, “Risolayi volidiya” Hazrat Xoja Ubaydullo Ahror Valining qalamiga mansub asar bo‘lib, Zahiriddin Muhammad Bobur uni forsiy tildan o‘zbek tiliga she’riy yo‘lda ijodiy tarjima qilgan edi.

Xoja Ahror Valini fors-tojik adaniyotining yirik namoyandasi Nuriddin Abdurahmon Jomiy va o‘zbek adabiyotining ulkan ijodkori Alisher Navoiylar ham o‘zlariga pir deb bilgan edilar. Abdurahmon Jomiy “Silsilat uz-zahob” (“Oltin zanjir”), “Tuhfat ul-ahror” (“Ahrorga tuhfa”), “Sibhat ul-abror” (“Yaxshilar tasbehi”), “Yusuf va Zulayho”, “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarida Xoja Ahrorning sifatlarini keltirib, uni ulug‘lagan., “Nafohat ul-uns-min hazrot ul-quds” kitobida esa Xojani o‘z zamonasida tasavvuf ilmining eng mashhur vakili deb ta’riflagan. Alisher Navoiy esa “Xamsat ul-mutaxayyirin”, “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari va “Hayrat ul-abror” dostonida Xoja Ubaydullo haqida keng to‘xtaladi. Xoja Ahror Vali naqshbandiya tariqatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib, uni o‘z davrida yuqori bosqichga olib chiqqan yirik siymolardan biridir. Uning “Risolayi volidiya” asari tasavvufahli orasida asrlar davomida mashhur bo‘lib kelsa-da, biroq o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan edi. Bu ishni Bobur amalga oshiradi. “Boburnoma”da ma’lumot berilishicha, Bobur “Volidiya”ni she’riy yo‘lda tarjima qilish ishiga 10-12 kin vaqt sarflaydi. Tarjimani boshlagan kecha 13 bayt yozgan. Keyinchalik har kuni 10 baytdan ijod qilgan. Bir kun ijodiy ish bilan shug‘ullanmagan, ya’ni tarjima qilmagan. Ilhomi kelgan kuni 52 bayt yozgan. Boburning o‘zi bu haqda “Boburnoma” asarida shunday ma’lumot beradi: “Seshanba kechasi safar oyining yigirma yettisida hazrati Xoja Ubaydulloning “Volidiya” risolasini nazm qilmoq xotiring’a kechti. Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko‘nglumg’a kechurdumkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bo‘lur hud nechukkim, sohibi “Qasidai burda”ning qasidasi maqbul tushub, o‘zi aflj marazidin xalos bo‘ldi, men dog‘i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig’a

dalile bo'lg'usudur. Ushbu niyat bila “ramali musaddasi maxbuni aruz” va “zarbohi maxbuni mahfuz” vaznidakim, mavlono Abdurahmon Jomiyning “Subha”si ham bu vazndadur, risola nazmig'a shuru' qildim, ham o'shal kecha o'n uch bayt aytili. Itizom yo'sunluq, kunda o'n bayttin kamrak aytilmas edi. G'olibo bir kun tark bo'ldi. O'tgan yil va balki har mahal mundoq orizakim bo'ldi, aqalli bir oy- qirq kunga tortti. Tengri inoyati bila, hazratning himatidin, panjshanba kuni oyning yigirma to'qquzida andake afsurda bo'ldi, o'zga bu orizadin xalos bo'ldum. Shanba kuni rabiul-avval oyining sekkizida risola so'zlarining nazm qilmog' ixtimomig'a yetti. Bir kun ellek ikki bayt aytili”²⁹.

Boburning “Volidiya” manzumasi quyidagi kompozitsion qurilishga ega:

- “Hamd”
- “Rasulullohning na'ti”
- “Risola nazmining sababi”
- “Risola shuru'i”
- “Risola xotimasi”

Bobur “Risola nazmining sababi”da Xoja Ahrori Vali va o'zining risolani nima sababdan yozganligini bayon qiladi:

*Hazrat-i Xoja Ubaydullohdin
Eshit ul sir-i Xudo ogahdin.
Xojalar xojasi ul Xoja Ubayd,
Xodim-u chokari Shibliy-yu Junayd.
Holat-u martabasi zohir-dur,
Vasf-u ta'rifida til qosir-dur.
Otasi qilg'an uchun taklife,
Qildi oning otig'a ta'life.
Tolib el tiliga mazkur-durur,
Volidiyya bila mashhur-durur.
Har so'z andaki, man anga yetsam,*

²⁹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989-йил, 318-бет.

*Yetti ko‘nglimga ani nazm etsam.
 Toki bo‘lg‘ay manga hushyorlig‘i,
 Uyquluq ko‘nglima bedorlig‘i.
 Yan bu nazm o‘qusa har tolib,
 Ko‘ngulning rag‘bati bo‘lg‘ay g‘olib.
 Rag‘bat aylab anga fayze yetsa,
 Tiyralik ko‘nglidinaning ketsa.
 Fayzidin manga yetishkay asare,
 Bexabar ko‘ngluma bo‘lg‘ay xabare.
 Yana o‘qug‘uchilarga ul on,
 Zabt qilmoqqa edi nazm oson.
 Bu deganlar manga bo‘ldi taqrib,
 Muni nazm ettim-u berdim tartib.
 Boqmag‘il so‘zlaguchining o‘ziga,
 O‘zini qo‘y, nazar etkil so‘ziga.
 So‘z mening ermas alarning-dur bil,
 Bilgasen meni mutarjim hosil.³⁰*

Demak, bundan ma’lum bo’ladiki, Xoja Ahror ushbu risolani o‘z otasining iltimosiga binoan yozib, uning nomini ham shunga moslab “Volidiyya” ya’ni, “Otalik risolasi” deb ataydi.

Risolaning jami hajmi 243 bayt, ya’ni 486 misrani tashkil etadi. Bobur yaratgan “Volidiya” tarjimachilik tarixidagi uslublar va tamoyillardan keskin farq qiladi. Birinchi eng muhim farqli jihat shundaki, Hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror Vali o‘z asarini nasriy yo‘lda fors tilida yaratgan edi. Bobur esa bu asarni tarjima qilishda o‘z iqtidori, shoirlik mahoratini ishga solib, uni she’riy usulda tarjima qildi. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, “Volidiya”ning tarjimasi erkin, shoir asl nusxadagi fikrlarni anglash, his etish jarayonida uni she’riy masnaviyga aylantirish namunasini ko‘rsatgan.

³⁰ Ҳазрат Хожа Убайдуллоҳи Аҳрор. Рисолаи Волидийя. – Т.: Ёзувчи, 1991-йил, 4-бет.

Albatta, nasriy asarni she'riy asarga aylantirish ijodiylikni talab qiladigan jarayondir. Chunki, she'riyatga xos tamoyillar: vazn, hijolar o'lchovi, qofiya tizimi, badiiy tasvir vositalarining yanada keng talab qilinishi, har bir bandda fikrning tugalligiga erishish asliyatning shaklini o'zgartirishga, ba'zan mazmun doirasini kengaytirishga asos bo'ladi. Lekin, tarjima asari asliyat qanday janr va adabiy tur ko'rinishiga ega bo'lmasin, uni boshqa janr yoki adabiy tur shakliga aylantirganda asliyatdagi ma'noni saqlab qolish lozimligi ijodkordan talab qilinadigan eng muhim vazifadir. Bobur tarjimasi asliyatdan shakl jihatidan farq qilsa-da, Hazrati Xoja Ubaydullohning asarni yozishdan maqsadi va ifodalangan qarashlarini saqlay olgan. Bobur, avvalo, o'z piri asariga ijodiy yondashadi hamda asliyatdagi tasavvufiy g'oyalarni saqlagani holda, unga badiiy jilo beradi. Masalan, "Volidiya"ning asliyatida ruh va uning hayoti haqidagi tassavvufiy qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Ruh tandan chiqqandan so'ng, boqiylikka, tiriklikka aylanadi. Ruh badandan ayrilgach, parda yo'qoladi, uning Olloh bilan yetishishi uchun to'siqsizlik paydo bo'ladi. Xush, ruhning Ollohgacha yetishishi qanday bo'ladi? Asliyatda bunday holat poetik manzara, obrazli o'xshatish orqali ifodalangan: "Falon shaharda yoki falon mahallada undog'-u bundog' sohibjamol bor, uni sevishing kerak, chunki u bilan do'stlikda ko'p lazzatlar mavjud"³¹, deyilar. Demak, bunday so'zni eshitish bilan oshiqda o'sha go'zalga nisbatan ishq paydo bo'ladi. Asliyatdagi matn tarjimada quyidagicha ifodalangan:

*Dunyoda har kishiga tengriga dil,
Ushbu yanglig' mutaalliq esa, bil.
Ruhi asli sari bo'lg'ach roji',
Ittiso topar ul bemoni'.
Garchi jon tan aro erkanda ko'ngul,
Tengri lutfi bila topqay bu vusul.
Lek bo'lg'ay bashariyattin, bil,
Ko'ngliga yubqa hijobe hosil.*

³¹ Хожа Ubaydulloх Ахрор. Рисолаи Волидиййа. – Т.: Янги аср авлоди, 2004-йил, 13-бет.

*Munqati' bo'lsa badandinchu jon,
 Bashariyat hujubi qolmas ul on.
 Ittisoile-ki, erur bemoni',
 Bu mahal ruh qua bo'lg'ay voqi'.
 Masalan, bir kishini birga agar
 Oshiq-u shifta aylaydesalar,
 Bu yo'sundug dey, tariqini, eshit:
 Bor falon shahrga bir xo'b yigit,
 Xatti sunbul, qadi sarv-u yuzi gul.
 Ko'zi mahrur o'zi mast-u so'zi mul.
 Husn ila xalq aro afsona-durur,
 Kim-ki, ko'rsa ani, devona-durur.
 Ishqida bor-dur aning lazzatlar,
 Oshiq o'lgan kishi lazzatin topar.
 Kim-ki, eshitsa bu yanglig' so'zni,
 Topqusi-duranga moyil o'zni³².*

Bizning nazarimizda, bu parchada asliyatdagi mazmun keng va yana-da badiiyyoq tarzda ifodasini topgan. Asliyatda ruhning Ollohga intilishi sohibjamolning ta'rifini eshitgan oshiqning intilishiga o'xshatilgan, lekin sohibjamolning go'zalligi ta'riflanmagan edi. Tarjimada esa sohibjamolning ta'rifiga jozibali o'xshatishlar, sifatlshlar topiladi: "xatti sunbul", "qadi sarv", "yuzi gul", "ko'zi mahrur", "o'zi mast", "so'zi mul", "husn ila xalq aro afsona", "kimki ko'rsa ani devona" kabi poetik tashbeh va iboralar tarjimaning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

³²Хазрат Хожа Убайдуллоҳи Ахрор. Рисолаи Волидийя. – Т.: Ёзувчи, 1991-йил, 9-10-бетлар.

III BOB. “MUBAYYIN” – MA’RIFIY-BADIIY ASAR

3.1. “MUBAYYIN” TARKIBIDAGI RISOLALARNING BADIIY

QIMMATINI O‘RGANISH.

O‘zbek adabiyoti tarixida diniy-islomiy g‘oyalarni targ‘ib etishga qaratilgan asarlarning yuksak namunalari mavjud. Masalan, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida Qur’on oyatlari va hadislardagi axloqiy qarashlar o‘z ifodasini topgan. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida olam va odamning yaratilishi haqidagi diniy qarashlar, shuningdek, payg‘ambarlar va avliyolarning diniy g‘oyalarni targ‘ib etishdagi sa’y-harakatlari, komilliklari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Ahmad Yassaviy hikmatlari hamda Sulaymon Boqirg‘oniyning she’rlari to‘lig‘icha islom g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu ikki shoirning asarlarida shariat qoidalariga oid qarashlar ham mavjud. Bu asosan shariatagi besh ruknning birinchisi – iymonga daxldordir. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari esa diniy-islomiy g‘oyalarni targ‘ib etgan shayxlar, avliyolar, o‘z tariqatiga ega bo‘lgan shaxslarning hayotini o‘rganishda alohida qimmatga ega. “Lison ut-tayr” dostoni islom ta’limotidagi tariqatlarning falsafiy mushohadasi asosida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, o‘zbek adabiyoti tarixidagi dastlabki masnaviylardan Bobur masnaviylarigacha yaratilgan asarlarning muqaddima qismlarida keltirilgan hamd va na’tlarda islom ta’limotining ruhi singdirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida islomiy qarashlarga bir necha manzumalar bag‘ishlangan. Navoiy yaratgan bu manzmaalarda ham shariat qonunlarining iymon qismiga oid ma’rifiy fikrlar o‘z ifodasini topgan. Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” masnaviysi esa o‘zbek adabiyoti tarixida shar’iy qonun-qoidalar she’riy yo‘lda bitilgan birinchi risoladir. Shu sababli ham masnaviyning Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan “Mubayyin” masnaviysiga diniy-ma’rifiy jihatdan ma’lum darajada o‘xshashlik tomonlari mavjud.

Bobur diniy sohada egallagan bilimi o'laroq "Mubayyin" asarini yaratgan edi. Unda oxirat kuni, nomai a'mol, mezon, arosat, shafolat, sirot hamda bosh mavzu – iymon haqida keng ma'lumot berilgan. "Mubayyin"ni chig'atoy adabiyotida yaratilgan mukammal diniy-falsafiy asar sifatida baholash mumkin. Unda Boburning e'tiqodi naqadar yuksak ekanligi va boshqa noyob fazilatlari bilan bir qatorda komil musulmonligi ham yorqin namoyon bo'ladi. Asar uchun Qur'oni karim oyatlari, shariati islomning ko'rsatmalari asos bo'lib xizmat qilganligining o'zi ham muallifning chin ma'noda chuqur diniy bilimlar egasi ekanligidan dalolat beradi.

"Mubayyin" yozilish sanasi, kimga atalganligi va nomlanish masalalari borasida turli fikrlar mavjud. Jumladan, rus sharqshunos olimi I.V.Stebleva mulohazasiga ko'ra asar 1521-1522-yillar oralig'ida yaratilgan³³. Aslida "Aruz risolasi"da qayd etilgan va Alisher Navoiy muzeyida 103 raqami ostida saqlanayotgan "Mubayyin"ning xotima qismidan o'rin olgan baytga ko'ra, asar 928 (milodiy 1522) yilda yozilgan:

Yil to'quz yuz yigirma sekiz edi,

*Fiqhda Bobur ushbu nazm edi*³⁴.

Asarni ba'zilar Komron Mirzoga bag'ishlab yozilganini, ayrimlar Humoyunga, boshqalar har ikki o'g'li va hamma uchun bitilganini, Bobur Mirzo kelajakda hukmdor bo'ladigan o'g'illarining diniy jihatdan barkamol bo'lishini maqsad qilganini bayon qilishadi. Aytish joizki, bu davrda asarlarning farzandlar uchun yozilishi an'anaaga aylangan edi. Shunday holni Shayboniynxonda ham ko'rish mumkin. U ham o'g'li Muhammad Bahodirga bag'ishlab "Risolai maorif" asarini yozgan va ayni chog'da, u xalq uchun ham foydali bo'lishini bayon qilgan.

Bobur asarni kimga bag'ishlanganligini risola nazmining sababida shunday bayon qilgan:

³³ Шухрат Хайитметов. Бобурнинг "Мубаййин" асарига доир айрим мулоҳазалар//Гил ва адабиёт таълими. 2009. №11. 28-бет.

³⁴ Захириддин Мухаммад Бобур.Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 166-бет.

*Bilgasen ey xo‘jasta-e farzand,
 Jigarim bila jonima payvand.
 Mas’alalar-ki, ul zarur erdi,
 Bilmasang dininga qusur erdi.
 Yetdi ko‘nglumg‘a-kim, yig‘ishtursam,
 Nazm tartibida sig‘ishtursam.
 To ani zabt qilg‘a-sen oson,
 Ul masoyilni bilga-sen yakson.
 Tonglaliq kunda-kim, hisob o‘lg‘ay,
 Menda ajr-u senga savob o‘lg‘ay.
 Ushbu niyyat-ki, men qilip-tur-men,
 Ul masoyil ki, men bilip-tur-men.
 Ja’mida sa’y-u ihtimom qilay,
 Sening otingg‘a men tamom qilay.
 Bebaqo dunyo ishi sahl-durur,
 Din ishin qqilg‘ay ul-ki, ahl-durur.
 Din-u donishda har kun afzzun bo‘l,
 Davlat-u baxt ila Humoyun bo‘l,
 Komron bo‘l jahonda, davlat ko‘r,
 Yuz tuman obro‘-yu izzat ko‘r³⁵.*

Bu paytda Boburning o‘g‘illari Humoyun va Komro Mirzo o‘zining balog‘at yoshidan o‘tib, yigitlik yoshiga ko‘tarilayotgan edi. Insonning ana shunday davrda din qoidalarini o‘rganishi o‘ziga xos zaruriyat hisoblanadi. Shu sababli shoir “Mubayyin”ni ikki o‘g‘liga bag‘ishlagan, ularning islomiy ta’limot hamda shariat qoidalarini egallashlarida bu kitob dasturilamal vazifasini bajargan deyishga asos bor. Albatta, bu kitobdagi masnaviylarda bayon etilgan fikrlarni faqat Humoyun yoki Komron Mirzolar o‘rganishi lozim, deb hisoblash ham bir yoqlamalik bo‘ladi. Chunki shariat ahkomlari, qonun-qoidalari, islomdagi farzlar bayon etilgan asarlar

³⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 7-бет.

kam bo'lgan bir davrda "Mubayyin" katta amaliy ahamiyatga ega edi. Islom dini ahkomlarini o'rganishga kirishgan yoshlar uni sevib o'qirdilar, o'zlariga qo'llanma deb bilardilar. Shu jihatdan qaraganda, "Mubayyin" shariat qoidolari bilan qiziquvchi barcha kishilarga mo'ljallangan asar hisoblanadi.

Bobur bu asariga "Mubayyin" deb qat'iy nom bergan

*(Chun bayon ettim anda shar'iyyot,
Ne ajab gar dedim "Mubayyin" ot.)*³⁶

bo'lsa-da, ba'zan uni "Mubin" shaklida e'tirof etilgan holda ham uchratamiz. Asarning asl nomini aniqlash borasida turkiyalik olimlarning fikr-mulohazalariga tayanish mumkin. Masalan, olim F.Ko'prulu asar nomiga to'xtalar ekan, "Mubin" aslida kimning asari ekanligi borasida quyidagicha fikr bildirgan: "Boburnoma"ni 1922-yilda ingliz tiliga tarjima qilgan A.S.Bevirij, hind muarrixlaridan Abu Fazil bilan Badouniyning bu nomni "Mubayyan" sifatida o'qishganini va Spinger ushbu asarni "Fiqhi Boburiy" deb ko'rsatganini bayon qilib, eski xatosida davom etgan. "Boburnoma"ni forschaga tarjima qilgan Shayx Zayn ushbu fiqh kitobiga sharh yozgan bo'lib, "Mubin" mana shu sharh kitobining nomidir. Asarning Turkiya nusxasi hijriy 937-yilda Marg'ilonda Muso Bin Iso Marg'inoniy tomonidan ko'chirilgan" (F.Ko'prulu Turkiya nusxasi deb o'z kutubxonasidagi qo'lyozmani nazarda tutgan).³⁷

Turkiyaning yana bir olimi Faruk Akun ham "Mubin" nomi noto'g'ri ekanligiga ishora qilib, yurtdoshi bergan izohni tasdiqlaydi va bu haqda shunday yozadi: "... asar haqiqiy nomi "Mubayyin" ekani mashhur tarixchi Abdulqodir al-Badouniy tomonidan ham ochiq-oydin tasdiqlangan. "Mubin" nomi al-Badouniy bildirganidek, Boburning kotibi Shayx Zaynning "Mubayyin"ga yozgan forsha sharhi nomidir."³⁸

³⁶ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 166-бет.

³⁷ Шухрат Хайитметов. Бобурнинг "Мубаййин" асарига доир айрим мулоҳазалар//Гил ва адабиёт таълими. 2009. №11. 30-бет.

³⁸ Шухрат Хайитметов. Бобурнинг "Мубаййин" асарига доир айрим мулоҳазалар//Гил ва адабиёт таълими. 2009. №11. 31-бет.

Asar masnaviy shaklida, xafif bahrida, foilotun – mafoilun – foilun qolipida bo‘lib, 2258 baytdan tashkil topgan. “Mubayyin” 5 qismdan tashkil topgan:

- E’tiqodiya
- Kitob us-salot
- Kitob uz-zakot
- Kitob us-savm
- Kitob ul-haj

Boburning “E’tiqodiya” masnaviysi ikki jihat bilan e’tiborga loyiqdir. Birinchisi, masnaviy mustaqil asar sifatida ham o‘z g‘oyaviy-badiiy qimmatiga egadir. Ikkinchisi, “Mubayyin” asari tarkibidagi to‘rt masnaviyga muqaddima yoki vazifasini bajarishdir. “E’tiqodiya”ning keying masnaviylar uchun muqaddima ekanligini ko‘rsatadiga asoslar nimadan iborat? Bizning kuztishimizcha, masnaviyning “E’tiqodiya” deb nomlanishi o‘ziga xos mantiqiy kuchga ega. E’tiqod tushunchasi faqat shu qismda bayon etilgan diniy-axloqiy qarashlarga nisbatan qo‘llanilgan emas. Bu e’tiqod butun islom ta’limotiga, shariat qonun-qoidalariga bo‘lgan munosabatdir. “Mubayyin” besh masnaviydan iborat bo‘lsa-da, mustaqil masnaviylarga xos hamd, na’t hamda kitob yozilishining sababi haqidagi manzumalar faqat “E’tiqodiya”da keltirilgan. Demak, bu manzumada bayon etilgan fikrlar keyingi manzumalar uchun ham o‘z mantiqiy quvvatiga ega. Ana shu mantiqiy quvvat keyingi masnaviylarni ham bir-biriga bog‘laydi. “E’tiqodiya” keyingi masnaviylar uchun kengaytirilgan reja ekanligi “Besh farzning ta’dodi” manzumasida yorqin ifodasini topgan. Shoir bu manzumada “Mubayyin” tarkibiga kiritilgan besh kitobda bayon etilgan diniy-axloqiy qarashlarning mazmun-mundarijasini beradi:

*Ulamu aksari dedi bu maqol,
Chihl farz o‘ldi mubtad-i a’mol.
Ilm-i farz elga misl-i qarz-durur,
Talabi barcha elga farz-durur.*

*Kim-ki avval bo'lsa bolig'-u oqil,
 Anga besh farzdur muni bilgil.
 Biri iymondur-u ikkinchi salot,
 Bu ikidin keyin uchunchi zakot.
 Ramazon ro'zasi-yuhaj o'tamak,
 Farz-i ayn o'ldi ushbu besh beshak.
 Eldin o'ldi borig'a toat shart,
 Lek ikida bor istito'at shart.
 Ul iki, hajni-yu zakotni der,
 Bo'lsa gar istito'ating bor der.³⁹*

Bunda Bobur ko'pchilik olimlar qirqta farz bor, deyishadi. Ammo shular tarkibiga kiritilgan ilm barcha uchun bo'lib, uni o'rganish qarz ekanligini ta'kidlaydi. Besh farz esa hammaga emas, balki voyaga yetgan va oqil (bu yerda sog'lom) kishilargagina farz ekanligini ta'kidlaydi. Bulardan ham ikkitasi imkoniyati bo'lgandagina bajariladigan amallardir: haj va zakot. Islom dinining eng insonparvar din ekanligini shundan ham bilsak bo'ladi.

Keyingi o'rinlarda Bobur har bir farzning bayoni haqida atroflicha ma'lumot beradi:

Avvalg'i farzning bayoni

*Bobur, avvalg'i farz qil ta'rif,
 Kim bor insong'a avval ul taklif.
 Bu-dur iymonmen aytayin, eshiting,
 Har ne der-men ani ko'ngulga biting.
 Mu'manun bihqa-kim bo'lur tahqiq,
 Qilg'ay iqror til, ko'ngul tasdiq.⁴⁰*

Iymon shunday narsaki, til iqror qiladi, ko'ngil tasdiqlaydi. Bobur biz ishonishimiz kerak bo'lgan oltita narsa haqida ma'lumot beradi. Bular:

³⁹Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 8-бет.

⁴⁰ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 8-бет.

- ✓ Xudo
- ✓ Malak (Farishtalar)
- ✓ Kitob
- ✓ Anbiyo (Payg‘ambarlar)
- ✓ Ro‘z-i oxir (Oxirat kuni)
- ✓ Yaxshilik va yomonlikning Xudodan ekanligi, ya’ni taqdir.

Bularga ishonish mo‘minning iymonidan dalolat beradi. Agar Olloh bo‘lmaganda edi, Yer va Osmon, tabiat, butun nabotot olami, hayvonlar va eng asosiysi, inson yaratilmagan bo‘lur edi. Bobur Ollohning sharhini bergandan so‘ng uning yetti sifatini bayon etadi. Bular:

- ✓ Hayot sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Ilm sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Irodat sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Qudrat sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Sam’ va basar sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Kalom sifatig‘a ishorat-tur
- ✓ Taqdirg‘a ishorat-tur

Bularning har biriga alohida to‘xtalib, undagi sifatlar bashariyatda yo‘qligini ta’kidlaydi. Masalan,

*“Bu hayot el hayotidek ermas,
Vasfi Haq el sifatidek ermas.
Tan-u jondin emas hayoti aning,
O‘xshamas xalqg‘a sifati aning”.*⁴¹

Xullas, birinchi kitob bo‘lmish “E’tiqodiya”da olti “mu‘man bih”ning ta’rif-tavsifi berilgach, kitobga xotima beriladi:

*Shukur li-l-loh murodima yettim,
Farz-i avval so‘zin taamom ettim.
Bu edi sunniy elga mu’taqidot,*

⁴¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 10-бет.

*Kim, bayon ayladim borini bot.
 Bu masoyil-ki, men bayon ettim,
 Bu aqoyid-ki, men ayon ettim.
 Derlar asliyya-yi e'tiqodiyya,
 Munkir o'lg'ay inodiyya.
 Qolg'on u to'rt farz-i shar'iyya,
 Amaliyya deyildi far'iyya
 Tengri tavfiqi bo'lsa dey barini,
 Ko'rsatay anda har amal yerini⁴².*

Yuqorida qayd etganimizdek, ikkinchi kitob namoz o'qish qonun-qoidalariga bag'ishlangan. Bobur bu kitobda qanday kishilar nomoz o'qishi kerakligi, kimlarga nomoz o'qimaslik uzrli holat ekanligi, qanday yerlarda nomoz o'qimaslik kerakligini va hatto, tahorat olish qoidalarini va uni buzadigan holatlarni ham juda go'zal she'riy uslubda bayon qilib bergan. Bunda Boburning mahorati shundaki, tahorat olayotgan vaqtda qanday duolarni o'qish kerakligi haqida ham ma'lumot beradi. Biz musulmonlar qanday tahorat olishni bilsak-da, hammamiz ham bu vaqtda qaysi duolarni o'qish kerak ekanligini bilmaymiz. Shu sababli ham Boburning bu asarining bugungi kun uchun ham ahamiyati katta. Masalan,

Og'iz yuvarda o'qug'uluq

*Rabbi a'inniy 'ala zikrika va shukrika va husni ibodatika va qiyomi to'atika
 va tilovati kalomika-l-karim.*⁴³

Keyingi kitoblar ("Kitobu-z-zakot", "Kitobu-s-savm", "Kitobu-l-haj")da ham Boburning diniy bilimlarni qanchalik chuqur egallaganligi namoyon bo'la boradi. Bu kitob boshqa diniy kitoblardan farqli o'laroq, she'riy yo'lda yozilgan va eng asosiysi, tili sodda. Baytlar ba'zan radif va qofyadan tashkil topgan:

*Fikr-u andeshadin emas bu ilm,
 Kasb ila peshadin emas bu ilm*⁴⁴.

⁴² Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 26-бет.

⁴³ O'sha kitob. 48 bet.

Baytda “emas bu ilm” birikmasi radif bo‘lib kelgan. “andeshadin”, “peshadin” so‘zlari esa qofiyadosh so‘zlardir. Bu so‘zlardagi “sh” harfi raviy bo‘lib kelgan. Misralarda Bobur tanosub sa’atidan foydalangan (“fikir-u andisha, kasb ila pesh”). Ba’zan shoir o‘z asarida radifsiz qofiyani qo‘llagan:

Bilga-sen Ka’ba-i tavf etguchilar,

*Haj-i umra yo’lig’a ketguchilar*⁴⁵.

Baytda “t” harfi raviy bo‘lib kelgan. Demak, bu asarda Bobur o‘zining faqat din peshvosi emas, balki yetuk shoir ekanligini yana bir boraa isbotlab bergan.

Ammo Zahiriddin Muhammad Bobur “Mubayyin” asarini yakunlar ekan, bu asarni yozishdan maqsad shoirlik mahoratini ko‘rsatish emas, balki xalq yo‘lida bilgan diniy bilimlarini bayon etib, olam ahliga sochishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

Men bu ganjimni oshkor ettim,

Borin din ahlig’a nisor ettim.

Ushbularkim dedim bo’lung ogoh,

Bordurur borchaxolisan lilloh.

Bu demakdin g’araz Haq erdi-yu bas,

*She’r-u shoirlik ermas erdi havas*⁴⁶.

Demak, Boburning “Mubayyin” risolasi diniy-axloqiy yo‘nalishdagi ham diniy, ham adabiy asardir. Bu asarni maxsus ilmiy jihatdan o‘rganish, eng avvalo, Boburning falsafiy va diniy-axloqiy qarashlarini aniqlash uchun zarur bo‘lsa, ikkinchidan, bu asarning ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rni va uning diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini belgilash uchun muhimdir.

⁴⁴ O‘sha kitob. 11-bet.

⁴⁵ O‘sha kitob. 124-bet

⁴⁶ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 166-бет.

3.2. “MUBAYYIN” ASARINING MA’RIFIY AHAMIYATI

“Fan vatanning eng kichik qiyofasi bo‘lmog‘i zarur, zotan barcha xalqlar ichida fikr va aqliy faoliyat sohasida boshqalardan o‘zib ketgan xalqgina birinchi o‘rinni oladi” (Lui Paster).⁴⁷ O‘zbek adabiyoti chin ma’noda xalqimizning qiyofasini aks ettira oladi. Chunki bunda xalqimizning urf-odatlar, turmush-tarzi aks etadi. Zero badiiy adabiyot tanlaydigan mavzuning doirasi keng. Adabiyotda mavzu siyosiy, falsafiy, shu bilan birga diniy ruhda ham bo‘lishi mumkin. Diniy-tasavvufiy ruhdagi badiiy asarlarni adabiyotimiz tarixining uzviy ajralmas qismi sifatida o‘rganish tamoyilining yuzaga kelishi milliy istiqlol mafkurasi mevasidir. Eng muhimi, diniy ruhdagi asarlarda ham badiiy adabiyotning ifoda vositasi – so‘zdan foydalaniladi. Yoki badiiy adabiyotga xos adabiy janrlar ham diniy asarlarni yuzaga keltirishda xizmat qiladi. Diniy voqea-hodisalarni targ‘ib etgan shoirlar o‘z asarlarida fikrni ta’sirchan ifodalash maqsadida badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalanadilar.

Shu jihatdan qaraganda, Boburning “Mubayyin” asari tarkibiga kirgan masnaviylar shariat qonunlarini targ‘ib qilishidan qat’i nazar, badiiy adabiyotning ham mulki hisoblanadi va adabiyotshunoslik bunday mazmundagi kitoblarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilay oladi. “Mubayyin” asari o‘tmishimizning boy ma’naviy merosi bilan hur xalqimizning barkamollik yo‘lidagi sa’y-harakatlari, ayniqsa, yosh-avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Bu asar “Fiqhi Boburiy” yoki “Fiqhii mubayyin” nomlari bilan ham yuritiladi.

“Mubayyin” Boburning “din ishig‘a ko‘p ehtirom kerak”, degan aqidasiining mahsulidir. Boburning kitobni yaratishdan asosiy maqsadi ham iymonli, e’tiqodli, insof va diyonatli, adolatli kishilarni tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shishdan iboratdir. Bu esa barcha davrlar, jumladan, bizning davrimizdagi yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan ezgu niyatdir.

⁴⁷ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуи. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1999-йил, 200-бет.

“Mubayyin” istiqlool sharofati bilan Saidbek va Hamidbek Hasanlar tomonidan birinchi marta to‘liq nashr ettirildi.

Bobur o‘z asarini she’riy yo‘lda yozganligi o‘quvchiga yengillik beradi. Yuqorida aytilganidek, birinchi kitob “E’tiqodiya” deb nomlangan. Bu qismda shoir, asosan, iymon haqida ma’lumot beradi. Har bir insonning iymoni yetuk bo‘lishi uchun olti narsaning borligiga ishonch hosil qilishi kerak. Avvalo, Ollohning borligiga iymon keltirish:

*Bu-dur iymon Xudog‘a kelturmak,
Shirk cheriginzamirdin surmak.
Aytqil, “Lo iloha illo-l-loh”,
Ayt, ma’nosidin ham ul ogoh.
Kalima ushbu-dur muni to‘xtat,
Demagi farz bo‘ldi bir navbat⁴⁸.*

Ya’ni, hech bir banda Xudoning borligiga shubha qilmasligi kerak. Tili va dilida “Lo iloha illo-l-loh” (Ollohdan o‘zga iloh yo‘qdur), deya kalimani aytib yurishi lozim. Ollohning ta’rifiga so‘z ojiz. U yer-u ko‘kning yaratuvchisidir. Undan o‘zga iloh yo‘qdur, sherik yo‘qdur Unga. Rahmonning sifatleri yettitadir va u sifatlar bashar elida yo‘qdir. Biribchisi, uning abadiyligi bo‘lsa, ikkinchisi, ilmdir:

*Yana biri ilmdur sifatlaridin,
Olim-u-l-g‘ayb bo‘ldi otlaridin.
Fikr-u andeshadin emas bu ilm,
Kasb ila peshadin emas bu ilm.
Tog‘da tosh, tuzda qum adadlarini,
Anga zohir-durur, bilur borini⁴⁹.*

⁴⁸ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 9-бет.

⁴⁹ O‘sha kitob. 11-bet.

Bu shunday ilmki, fikr va andisha, kasb va hunardan emas, insonlar bunday ilmga ega emas. Hatto, tog'dagi toshlarning, qum zarrachalarining ham son-sanog'i Unga ma'lum.

Ma'rifatga erishish, ma'rifatli bo'lish qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, u mohiyat va e'tiboriga ko'ra inson hayotining mazmunini o'zida mujassam etadi. Buni yaxshi anglagan Bobur ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Ayniqsa, uning "Mubayyin" asari ma'rifatli insonlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi:

*...Emdi to'rtunchi farz azmin qil,
Ro'zaning so'zig'a og'iz ochg'il.
Yemak-u ichmak, jimo' etmak,
Nafs lazzati-dur bular beshak.
Gar bu uch ishni qilmasang kunduz,
Tark-i niyyatlig' o'lsa bo'lur so'z,
Shar' ahli qoshida savm bu-dur,
Munda bil ittifoq-i qavm bu-dur.
Subdin oftobe botg'uncha,
Shar'ning kunduzi-durur muncha.
Ro'za farzi bu iki-dur to'xtat,
Bu uch ish tarke, yana niyyat⁵⁰.*

Har bir musulmonga ro'za tutmog' farz hisoblanadi. Bobur yuqoridagi parchada ro'zador nimalardan o'zini tiyishi kerakligi haqida fikr yuritmoqda. Ya'ni ro'za tutishni niyat qilgan inson kunduz kuni o'zini uch narsadan saqlashi kerak. Bular:

- Yemoq
- Ichmoq
- Jimo' etmak.

⁵⁰ Захириддин Мухаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000-йил, 110-бет.

Va albatta, bulardan saqlanish bilan birga, ko'nglida niyati bo'lsagina uning tutgan ro'zasi qabul bo'ladi.

O'zligini, din-u mazhabini yaxshi bilgan kishigina ma'naviyat va ma'rifat sohibi bo'la oladi. Shu sababli Zahiriddin Muhammad Boburning bu asari bugungi kun uchun juda ahamiyatli.

XULOSA

Jahon madaniyatiga o‘zining boy merosi bilan katta hissa qo‘shgan buyuk bobakalon shoirimiz Zahiriddin Muhammad Bobur fanning turli sohalarini yaxshi bilibgina qolmay, uni rivojlantirishga ham munosib hissasini qo‘shgan. “Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak” (Servantes).⁵¹ Shu jihatdan olib qaraganda, biz Boburni buyuk inson deb ayta olishimiz mumkin. Uning ijodini o‘rganish shoir haqida kengroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bobur ziddiyatli va tahlikali bir zamonda yashaganligiga qaramay, o‘zidan boy meros qoldirdi. Uning asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki chet mamalakatlarda ham sevib o‘rganiladi⁵². O‘zbek adabiyotida Bobur haqida juda ko‘p ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, metodika sohasida yetarli tadqiqotlar olib borilmaganligi va asarlarining ma‘rifiy ahamiyati to‘liq yoritilmaganligi sababli biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatlarni yoritib berishga harakat qildik.

Ishning dastlabki bobi “Bobur faoliyati va adabiy merosini o‘rganish tarixi” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi qismida Bobur faoliyatining darsliklarda berilishi haqida fikr yuritildi. Ko‘rib o‘tilganidek, umumiy o‘rta ta‘limning 5- va 9-sinf adabiyoti darsliklarida hamda o‘rta maxsus ta‘limning II bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan darslikda shoir hayoti va faoliyati haqida ma‘lumot beriladi.

Davlat ta‘lim standartlarida adabiyot ta‘limining maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi adabiy ta‘lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma‘naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi.

Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag‘bat, mehr va muhabbat uyg‘otish;

⁵¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1999-йил, 187-бет.

⁵² Abdug‘afurov Abdurashid. “Boshimni olib, ey Bobur...”//O‘zbek tili va adabiyoti. 2004. № 6, 18-bet.

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;
- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Darsliklar bu maqsadlarga Bobur hayoti va ijodini o'qitish davomida erishishi mumkin. Biz darsliklarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinganligini darsliklarning yutug'i deb baholaymiz. Chunki 5-sinf darsligida berilgan ma'lumot keyingi darsliklarda takrorlanmaydi, balki to'ldiriladi. 5-sinf o'quvchilarini zeriktirib qo'ymaslik uchun berilmagan tarixiy sanalar va asarlarining nomlari yuqori sinflar uchun mo'ljallangan darslikda beriladi. Buning asosiy sababi esa o'quvchilarning eslab qolish qobiliyati shakllanib bo'lganligida. Agar Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritganda shunchaki hikoya tarzidagi ma'lumot berishdan cheklanib, uning zamondoshlari, shogirdlari yoki yozuvchi va shoirlar tomonidan berilgan fikrlar ham darslikarlardan o'rin olganda edi, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Birinchi bobning ikkinchi qismi darsliklarda "Boburnoma" asarining o'rganilishiga bag'ishlangan. Ma'lumki, mutafakkirning eng yetuk va uni dunyoga tanitgan asari bu – "Boburnoma". Bu asarda 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy, siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyatiga bevosita aloqadordir. Hozirda amalda bo'lgan darsliklarda "Boburnoma"dagi Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, G'azna va Hindiston bilan bog'liq

parchalar keltirilgan. Keyingi uch joy nomi umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darslikda uchramaydi. Avvalgi uch shahar esa har ikkala darslikdan o'rin olgan. O'rta maxsus ta'limda tarixiy shaxslardan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy ta'rifi keltirilgan. Buning asl sababi har ikki shaxs ijodkor bo'lib, darslikda Bobur hayotidan oldingi darslarda o'quvchilar ular haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. "Boburnoma"ni o'qish davomida esa ularning bilimlari mustahkamlanadi va shoirlar haqida kengroq tushuncha hosil qiladilar.

Ikkinchi bobda Bobur she'rlarining darliklarda berilishi va ularning mavzu ko'lami haqida so'z yuritiladi. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir ona tilida yozgan she'rlarini to'plab, 1519-yilda Kobulda, 1928 – 1529-yillarda Hindistonda devonlar tuzgan. Bu ikki to'plam o'sha joylar nomi bilan "Kobul devoni", "Hind devoni" deb ataladi. Kobul devoni topilgan emas.

Yuqorida nomlari tilga olingan har uchala darslikda ham Bobur she'rlaridan namunalar keltirilgan. Beshinchi sinfda shoirning ruboiylari bilan tanishgan o'quvchilar to'qqizinchi sinfda "Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-badah qondur" va "Mushkuldur" radifli g'azallari bilan tanishadilar. Boburning she'rlarini uning hayoti bilan bog'lab tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda namuna sifatida "Qoldimu" radifli g'azalini shu tarzda tahlil qildik. Bunday tahlil usulining yutug'i shundaki, o'quvchilar, birinchidan, asar qachon va qanday sharoitda yaratilganligi haqida ma'lumotga ega bo'lsalar, ikkinchidan, shoirning ruhiy kechinmalarini teran anglaydilar. Albatta, bu tarzda barcha she'rlarni tahlil qilib bo'lmaydi. Chunki, mumtoz adabiyotdagi bosh mavzu ishq edi. Bunday mavzuda yozilgan she'rlar sof intim lirikaning mahsuli hisoblanadi. Ularni tahlil qilishda har bir so'zning ma'no qirrasini e'tiborga olinadi. Bu esa o'qituvchining mahoratiga bog'liq. U dars o'tish mobaynida bitta g'azalni tahlil qilib berib, qolganlarini o'quvchilar hukmiga havola etishi lozim. Shogirdlari adashgan o'rinlarda o'zi tuzatishlar kiritib, ularning fikrini to'ldirsa, ta'limning samarasi uchun xizmat qiladi.

5- va 9-sinflarda keltirilgan she'rlarning o'rta maxsus ta'limda takrorlanishi ajablanarli hol. Chunki umumiy o'rta ta'limga Boburning sanoqli she'rlari kiritilgan bo'lib, o'quvchilar bu she'rlar bilan tanishib, yod olib ulgurgan bo'lishadi. Shu sababli bu she'rlar o'rniga boshqalarini havola etish lozim.

Boburning tarjimashunoslik sohasida ham o'zini sinab ko'rgani barchamizga ayon. Uning yutug'i shundaki, nasriy yo'lda yozilgan asarni nazmda tarjima qilgan. Ma'lumki, Xoja Ahrori Vali "Volidiya"ni forsiy tilda, nasrda yozgan edi. Bobur bu zotni o'ziga pir hisoblar edi. Shu sababli sog'ligi yomonlashgan paytda "Volidiya" tarjimasiga kirishadi va "Agar qabul bo'lsa, men shifo topayin. Shu orqali tarjimini qabul bo'lgan yoki bo'lmaganini bilayin", deya ko'nglidan o'tkazadi. Asar tarjimasi tugatilgandan so'ng ko'p o'tmay Bobur shifo topadi.

"Volidiya" Boburning tasavvuf ruhidagi tarjimasi bo'lib, unda shoir Xoja Ahror Valining diniy-tasavvufiy qarashlarini o'zbek tilida berish jarayonida o'z ilohiy kechinmalarini singdira olgan. Bu asar diniy yo'lda yozilganligi sababli uzoq vaqt o'rganilmay keldi. Asar haqida ijobiy fikrlar mamalakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng aytila boshladi.

"Mubayyin"ni o'rganish ishlari ham O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ruyobga chiqa boshladi. Bu asarni o'rganish va uning matnini nashr qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Boburning ushbu asari nafaqat adabiyotshunoslar, balki islomshunos, tarixchi, faylasuf, iqtisodchi, tilshunos, pedagog va boshqa qator soha olimlari uchun qimmatli manba bo'la oladi. "Mubayyin" asari o'tmishimizning boy ma'naviy merosi bilan hur xalqimizning barkamollik yo'lidagi sa'y-harakatlari, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Bu asarni o'rganish, eng avvalo, Boburning falsafiy va diniy-axloqiy qarashlarini aniqlash uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, bu asarning ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni va uning diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini belgilash uchun muhimdir.

Xullas, badiiy adabiyot qaysi janr va mavzularda yozilmasin, undan kutilgan asosiy maqsad insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaraganda, Zahiriddin

Muhammad Boburning ham har bir asari o'ziga xos axloqiy-ta'limiy, ma'naviy ma'rifiy ahamiyatga ega Bu asarlarning umumiy ruhi insonni komillik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Маънавий юксалиш йулида (тўплам) – Т: Ўзбекистон, 1998.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999.
3. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
5. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
6. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.

II. Ilmiy adabiyotlar:

8. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – Т.: Sharq, 2011-yil.
9. Vohidov R.J., Eshonqulov H.P. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006.
10. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Т.:А. Қодирий номидаги «Халқ мероси» нашриёти. 2002.
11. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.:Шарқ, 2007.
12. Долимов С., Убайдуллаев Х., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967.

13. Зоҳидов.В. Ўзбек адабиёти тарихидан – Т, 1961
14. Нуриддинов.М . Бобурийлар сулоласи – Т : Фан, 1944
15. Орзибеков. Р Лирикада кичик жанрлар – Т: 1976
16. To‘xliyev B., Mirsamiova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
17. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligraf service, 2010.
18. Саидова Р. 8-синфда Бобур ҳаёти ва ижодини ўрганиш – Т.

III. Badiiy adabiyotlar:

19. Нажмиддин Комилов. Маънолар оламига сафар. – Т.:Tamaddun, 2012.
20. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.
21. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000.
22. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарқ, 2007.
23. Отажонов. Н . «Бобурнома» жаҳон кезади Т: 1970
24. Шарма С.Р. Бобурийлар салтанати – Т: Маънавият, 1998
25. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Рисолаи Волидийя. – Т.:Янги аср авлоди, 2004.
26. Ҳаккулов. И. Ўбек адабиётида рубоий –Т: 1994
27. Ҳасанов. Х. Бобур – сайёҳ ва табиатшунос- Т: Ўбекистон, 1983
28. Хомидов. Х .Ҳасаний М. Машриқзамин ҳикмат бўстони – Т: Шарқ, 1997
29. Ҳазрат Хожа Убайдуллоҳи Аҳрор. Рисолаи Волидийя. – Т.:Ёзувчи, 1991.

IV. Dissertatsiya, maqolalar to‘plami va avtoreferatlar:

30. Бобур ва унинг замондошлари ижодини ўрганиш (илмий мақолалар тўплами). – Сам., 1983.
31. Бобуршоҳ маънавий меросини замонавий тарзда ўқитиш муаммоси (илмий мақолалар тўплами). – Сам., 2004.
32. Ражабова Дилдора. Заҳириддин Муҳаммад Бобур маснавийлари бадиияти ва маърифий қиммати. – Сам., 2004.

V. Gazeta va jurnallar:

33. Abdug‘afurov Abdurashid. “Boshimni olib, ey Bobur...” // O‘zbek tili va adabiyoti. 2004. № 6, 18-bet.
34. Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh (“Tarixi Rashidiy”dan). Fors tilidan G‘ulom Karim tarjimasi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2002-yil, 15-fevral
35. Ro‘ziyev A. “Boburnoma” – maftunkor asar // Hurriyat. 2010. 17-fevral, 8-bet.
36. Teshaboyev B. Boburning “Boburnoma” asaridan foydalanish // Xalq ta’limi. 1993. №10-12, 25-27-bet
37. Yodgorov Sh. Bobur siymosi yoxud Sharq va G‘arbda sharaflangan shoh // Mohiyat. 2011. № 19, 13-may, 6-bet.
38. Qudratullayev N. Boburni anglash baxti // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2011. №51. 16-dekabr, 3-bet.
39. Иброҳимов А. Бобурнинг сўз қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. № 1, 48-бет.
40. Ҳайитметов Ш. Бобурнинг “Мубаййин” асарига доир айрим мулоҳазалар // Тил ва адабиёт таълими. 2009. №11. 28-бет.

- 41.** Ғозиев Н. Кўнгли тилаган муродига етса киши... З.М.Бобур // Ҳуқуқ.
2012. №7, 16-феврал.

VI. Internet saytlari:

Google.uz.

ZiyoNet.uz